


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
Amaliy matematika kafedresi



“AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”

fanidan

O‘QUV QO‘LLANMA



Namangan 2019 yil

O‘quv qo‘llanma 2017 yil O‘R OO‘MTV tomonidan № BD № BD-5110800-2.02 raqami bilan 2017 yil 24 avgustagi 603- sonli buyrug‘ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **G.N.Yunusova** – pedagogika fanlari nomzodi dotsent.

Taqrizchilar: **Imomov A.I.** – NamDU “Amaliy matematika” kafedrasi dotsenti, f.m.f.n.

Ismanova K.D. – NamMQI “Texnik tizimlarda Axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O‘quv qo‘llanma Namangan davlat universiteti Kengashininig 2018 yil “3” sentyardagi “1” - son yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

ANNOTASIYA

“Axborot texnologyalari” fani uchun tayyorlangan nazariy materiallar modulli ta’lim asosida modular bo’yicha yoritib berilgan.

AKTni ta’limda qo’llanishdan boshlab undan online tarzda ingliz tilini o’qitishda va o’rganishda qo’llanilishiga urg’u berilgan. Ta’limda qo’llaniladigan Smart doska, multiproektor, iSpring Suite paketi dasturlari, qolaversa test yaratuvchi dasturiy vositalar, dasturlar, on-line o’quv materillari, tetslar, crosswordlar yaratuvchi instrumental dasturlar, web content yaratuvchi Web Page Maker, kurs yaratuvchi CourseLab, Moodle o’quv platformasi, bir qator electron darslik yaratuvchi dasturlar: SunRayBookOffice, Front Page, sayt yaratuvchi dasturlar haqida ma’lumotlar va ularni qo’llash jarayoni batafsil tahlil etilgan.

“Axborot texnologiyalari” faniga oid namunaviy daasurda ko’rsatilgan modular va ularning tarkibidagi mavzular yoritilgan.

Mavzularga doir materiallar chet el adabiyotlaridan va internet materillari orqali to’ldirilgan.

O’quv qo’llanmani Horijiy til va adabiyoti, Filologiya va tillarni o’qitish yo’nalishi talabalariga hamda “Aaliy matematika” yo’nalishi talabalari va o’qituvchilriga bu fan haqida evolyutsion tassavurga ega bo’lish uchun taqdim etiladi.

Chunki bu kitobda ko’rilgan mavzular “Amaliy matematika” yonalishi talabalariga o’qitilmaydi. Ularni esa bo’lajak mutahassis bilishi kerak bo’ladi, chunki videomontaj qilish, o’quv materillarni tayyorlash, turli dasturlarda ishlashni bilish har bir mutahassis uchun kerak bo’ladi. Ayniqsa informatkachi bunday bilimlardan o’zining fanini o’qitishda foydalanishi zarur. Video-ma’ruzalar, audiolarni yaratish aaliy matematiklarga o’qitilmaganligi uchun ham bu o’quv qo’llanma amaliy matematika, matematika va fizika, aniq fan vakillariga ham keraklidir.

MUNDARIJA

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING NAZARIY QISMI MODULLI TA'LIM ASOSIDA

1-modul. AKTni ta'limda qo'llanilishi konsepsiyalari.....	5
2-modul. Zamonaviy o'quv-texnik vositalar.....	29
3-modul. Kompyuter lingafon sinflari: turlari va ularda ishlash usullari.....	63
4-modul. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan dasturiy vositalar.....	79
5-modul. O'quv animatsion lavha (roluk) larni tayyorlashning zamonaviy vositalari.....	106
6-modul. O'quv audio va video materiallarini yaratish va ishlov berish.....	118
7-modul. O'quv web-kontentlari yaratishning dasturiy vositalari O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya va interaktiv texnologiyalardan foydalanish.....	127
8-Modul. Internet ta'lim uchun web-maydonchalar – mustaqil ta'limning asosiy elementi sifatida.....	191
9-Modul. Elektron ta'limni boshqarish tizimlari.....	228
10-Modul, Smart o'qitishni rivojlantirish tendensiyalari.....	277

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING NAZARIY QISMI

MODULLI TA'LIM ASOSIDA

1-modul. AKTni ta'limda qo'llanilishi konsepsiyalari

Reja:

1. Kursning maqsadi va vazifalari.
2. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning zamonaviy tendensiyalari, ilg'or texnologiyalari tavsifi va rivojlanish omillari.
3. Ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash borasidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yo'nalishlar.

Tayanch so'z va iboralar: AKT, axborot texnologiya, texnologiya, zamonaviy tendensiyalar, ilg'or texnologiyalar.

Asosiy matn:

Axborot texnologiyalari axbobortni olish, qayta ishlash va tarqatish jarayoni bo'lib, bu jarayonda inson resurslari va texnik resurslar qatnashadi. Agar bir qism odamlar axborotni tarqatsa, ikkinchi qismi uni oladi. Bu jarayonda axborotni olish, qayta ishlash va tarqatishda turli texnik resurslar: kompyuter, mobil telefon, elektron doska, proeksion tizimlar, turli uskunalar qo'llaniladi. Axborotlarni olish va tarqatish uchun mahsus kompyuter dasturlarida ishlashni bilishni davr taqozo etmoqda, elektron pochta, modem, internet orqali ma'lumotni tez olish va javo olish mumkin. Axborot kommunikatsion texnologiyalar deganda, raqamli, mobil, multimediali, masofaviy, internet texnologiyalarini va ularni qo'llash uchun audiovideo kommunikatsion vositalarni: televizor, elektron doska, mobil telefonlar va boshqalarni tushunamiz.

Kompyuterda, smart texnologiyalarida yoki mobil telefonlarda mahsus kompyuter dasturlarini bilish zaruriy hisoblanadi. Axborot texnologiyalari fani axborotlarni olish, yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun kerakli dasturiy vositalarni o'rgatishni va on-layn hamda off-layn tizimlarida ishlaydigan dasturiy

vositalarni hamda instrumental dasturlarni o'rgatishni maqsad qilib olgan. Axborot texnologiyalari fanining asosiy vazifasi zamonaviy yoshlarni, bo'lajak kadrlarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan o'z mutahassisligida foydalanishga o'rgatishdan iborat. Bo'lajak ingliz tili mutahassislari kelajakda tilni o'rgatishlarida va o'qish davrida o'zlari o'rganishlarida on-layn ta'lim resurslaridan, dasturiy vositalardan hamda til o'rgatuvchi saytlardan, tarjimon kompyuter dasturlardan, mobil ilovalardan hamda tarjimon dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda jamiyatni axborotlashtirish, elektron davlatni joriy etish va rivojlantirish, yoshlarni til o'rganish masalalariga jiddiy qarash, bo'lajak mutahassislarni axborot texnologiyalarida ishlashini ta'minlashga, til o'rganishga bo'lgan talablar "Axborot texnologiyalari" fanini o'qitishni dolzarbligini belgilaydi. Mamlakatimizda jamiyatni axborotlashtirishga, barcha sohalarni shaffof ishlashini ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda, buning uchun xar bir sohaga axborot texnologiyalarini qo'llash, ijobiy samara beradi. Mamlakatdagi huquq organlarini va boshqa sohaslarini yuqori samarada ishlashini ta'minlashda davlatimiz tomomnidan turli chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. Bu sohada O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyayevning matbuot va parlament a'zolariga oldida so'zlagan nutqlarining mazmuni isbot tariqasida keltirilishi mumkin¹.

"Texnologiya" so'zi texnos-mahorat, san'at - "logos"-olib borish, ma'nolariga ega bo'lib, bu tushunchani biz ta'limga nisbatan qo'llasak, ta'limni san'at darajasida olib borish degan ma'nolarga egadir. "Axborot texnologiya"- bu axborotlarni olish, qayta ishlash va tarqatishda inson resurslari va audio-kommunikatsion texnologiyalar qatnashuvchi jarayondir. Bu jarayonda insonlar qatnashadi va zamonaviy texnik vositalaridan foydalanishadi. Bu terminni biz ta'lim jarayoniga ham qo'llashimiz mumkin². Ya'ni axborot texnologiyalari muhitida fanlarni o'qitish samarali natija beradi. An'anaviy o'qitish tizimi orqali amalga oshirib bo'lmaydigan jarayonlarni biz kompyuter dasturlari, zamonaviy

¹ Ш.М.Мирзияев, 22 декабрь, 2017 й., Парламент аъзоларига сўзлаган нутқи.

² Evans V., Dooley J., Wright S. Information Technology. Express Publishing

texnik vositalar yordamida, dasturiy vositalar va instrumental dasturlar orqali qiziqarli, unumli, vaqtni tejaydigan natijalarga erishishimiz mumkin. Biz biror dasturda ta'limdagi biror mavzuni o'rgatuvchi ta'lim resurni yaratsak, bu narsani ta'limda qo'llasak va u yuqoriroq samara bersa, o'zlashtirishga ijobiy ta'sir qilsa, bu "texnologiya" hisoblanadi, ya'ni axborotni unumli taqdim etuvchi texnologiya. Misol uchun, Power Pointdagi taqdimotlar, iSpring Sute paketida yaratilgan yangi avlod taqdimotlari, electron kitoblarni va boshqalarni. SHunga o'xshab, boshqa dastrlarini qo'llash ham ijobiy natija beradi.

"Axborot texnologiyalari" fanini o'qitishdan maqsad, zamonaviy axborot texnologiyalar haqida tushuncha berish, zamonaviy dasturiy vositalar, zamonaviy kompyuter dasturlarida ishlashni bilishni o'rgatish va ta'lim jarayoniga mos o'quv resrularini kompyuterdan, undagi zamonaviy dasturlardan, dasturiy vositalardan, pedagogik dasturlardan foydalanib, yaratish³. Ta'lim jarayoniga mos elektron darsliklarini, o'quv elektron resurslarini, on-layn tizimida va off-layn tizimida ishlaydigan o'quv pedagogik vositalarni yaratishni o'rgatishdan iboratdir. Bu fan o'zining oldiga bir necha vazifalarni quyib olgan, ya'ni birinchi istiqbol reja, yaratilgan va yaratilayotgan yangi kompyuter dasturlaridan xabardor bo'lib turish, mavjudlarini dars jarayoniga qo'llashni o'rgatish, o'qituvchinng o'zining oldida ham bu fan bir necha istiqbolli rejalarni qo'yadi, ya'ni fan o'quvchisi doimo o'z ustida ishlashi, zamonaviy dasturlardan xabardor bo'lishi, ularni ish jarayoniga qo'llashi va talabalarni bu dasturlarda ishlashni o'rgatishi zarur. O'quv axborot kommunikatsion texnologiyalar-bu audio, video va kommunikatsiya vositalarini axborotlarni xosil qilish, olish, ishlab chiqish va qayta ishlash hamda tarqatish jarayonidir. Bu jarayonda inson resurslari va texnik resurlar qatnashadi. Biri ikkinchilari uchun xizmat qiladi. Ya'ni texnik resurlar insonlarni axborotni olishlari uchun va boshqa odamlarga tarqatish uchun xizmat qiladi. Texnologiya-maxorat, san'at degan ma'noga ega, logos esa-ta'lim, o'qitishni olib borish, demakdir.

³ Громов Ю.Ю. Информационные технологии. Тамбов 2015

“Axborot texnologiyalari” kursining maqsadi AKTdan ta’limda, jumladan, xorijiy til va adabiyoti fanini o’qitishda qo’llashni o’rgatish, talabalarning esa ta’limda qo’llaniladigan dasturlar, dasturiy vositalardan o’z mutahassisliklarida foydalanishni bilish, ta’limda qo’llashni bilish, ularni o’rganish va foydalanish hamda qo’llashning zamonaviy tendentsiyalardan biri, bu axborot texnologiyalarining turlari bilan tanishish, ularning qaysi sohaga oidligini farqlay bilish va ilg’or texnologiyalarni, bir tildan ikkinchi tilga o’girish texnologiyalari, matndan giper-matnga o’girish texnologiyalarini, taqdimot yaratish texnologiyalarini, ekspert tizimlar texnologiyalari, elektron xukumat, masofaviy ta’lim texnologiyalari, video-kurslar, elektron resurslar, on-layn taqdimotlar va boshqa ta’lim resurlarini yaratuvchi dasturlar va dasturiy vositalarni o’rganish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim jarayoniga axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo’llash ta’lim jarayonini mazmunli, chiroyli, unumli, qulay, vaqtni tejovchi va o’zlashtirishni sifatini oshiruvchi etib amalga oshirib beradi. O’qituvchining dars berish jarayonini unumli, vaqtni tejovchi va mazmunli tarzda o’tkazib beradi. O’zlashtirish sifatida vaktning tejalishi evasiga, ya’ni kompyuter dasturlari qushimcha kanallari orqali ko’z xotirasini, qabul qilish jarayonini ishga tushirib, ularga ta’sirni kuchaytirib, rangli rasmlar, xarakatli animatsiyalarni o’qitish jarayoniga tadbqiq etib, tasavvurni to’g’ri shakllantirish orqali bilish jarayonini, tafakkur etish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llashning dolzarb vazifalaridan biri, bu elektron darsliklarni yaratuvchi, elektron resurslarni, taqdimotlarni, zamonaviy ta’lim vositalarini yaratuvchi dasturlarni o’rgatishdan iborat. Axborot katta jadallik bilan kirib kelmoqda, “kim axborot bilan birinchi tanish bo’lsa, o’sha voqeani boshqaradi”⁴, jarayon boshqarish uni qo’lida, ya’ni u dunyoni boshqaradi, deyishadi. Katta xajmdagi axborotlarni etkazish, uni samarali egasiga berish, vaqtni tejash vazifasini bajarishda axborot texnologiyalar yordamga keladi. Konsepsiya-bu ta’limot deganidir. AKTNi ta’limda qo’llash konsepsiyasi AKTNi

⁴ Стив Джобс, Iphonning yaratuvchisi.

ta'limda qanday qo'llash kerak, qanday dasturlarni o'rgatish zarur, qaysi dasturiy vositalarni ta'lim jarayoniga qo'llashni o'rgatmoq kerak degan savollarga va qancha soat o'qitish kerak degan mazmundagi savollarga javob beradi. SHularga asoslanib bu fanning keyingi modullari o'qitiladi. Modul-o'quv kursining bir bobi, qismi, qism yoki bob ma'ruzalardan, mavzulardan tashkil topgn. Modulli o'qitish-o'quv kursini modullarga yoki qismlarga, bo'laklarga bo'lib o'qitish. Xar bir modulga test beriladi, testdan muvofaqqiyatli o'tgan talaba keyingi testni ishlashga o'tadi. Uni yecha olmasa, mavzuni yoki yaxshi o'zlashtirmagan ma'ruzani boshqatdan o'rganadi. Axborot texnologiyalari turlari mavjud: bir tildan ikkinchi tilga ugirish texnologiyalari, ular Front Page dasturi , HTML tili, SunRavBookOffice dasturlari aososida amalga oshiriladigan veb sahifalar, veb texnologiyalar, giper-murojatli giper-matn texnologiyalari, elektron xukumat, elektron tijorat, ekspert tizimlar, elektron ta'lim, modulli masofaviy ta'lim texnologiyalari, mobil ta'lim texnologiyalari, mobil texnologiyalar, bu Android, iOS opereatsion tizimlar bilan bog'liq texnologiyalar, ilovalar yaratuvchi, mashrutizator yo'l-boshlovchi va boshqaruvchi, Googleda ishlovchi oogle matn, Google taqdimotlar, Google shakl, Google Taqvim, Google Trips, Google maps, Google Duo on-layn ilovalar va ulardan foydalanishga mo'ljallangan masofaviy va on-layn ishlovchi texnologiyalar (Google+) va boshqalardir. Demak, **Axborot texnologiyalar - axobortni olish, qidirish, yig'ish, saqlash, ishlov berish, taqdim etish, tarqatish uslublarini va jarayonlarning birligi, bundy uslub va jarayonlarni amalga oshirish uslublari. Kommunikatsion texnologiyalar-axboborotni berishning uslublari va jarayonlari hamda ularni amalga oshirishning uslublari (1 avgust, 2013 y.).**

Axorot texnologiyalar⁵

Axborot texnologiyalar (AT, shuningdek — informatsion-kommunikatsion texnologiyalar) — jarayonlar, qidirish, yig'ish, saqlash, ishlov berish, taqdim etish, tarqatish uslublari, bunday jarayonlarni va uslublarni amalga oshirish uslublari; usullar, yo'llar, hisoblash texnikasini qo'llab axborotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish hamda tarqatish, berilganlarni qo'llashning uslublari va yo'llari; axborotni yig'ish, ishlov berish, saqlash va tarqatish uchun zaruiy resurslar.



O'zbekistonda ham AKtdan foydalanish ancha ishlarni iychamlashtirishini inobatga olib, hayotning juda ko'p sohalarida zaruriy elemntligini inobatga olgan holda, asosiy yo'nalishlarni o'zaro va ichida aniqlash mumkin. Masalan, biznes va hokimiyat o'rtasida, jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni tog'ri amalga oshirishda tezkor yordam qiladi. Ular orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

- Qonuniy datani takomillashtirish;
- Hokimiyat organlari bilan n biznes va aholini munosabati;
- Ta'lim aspekti-mutahassislarni tayyorlash;
- AKT bozori.

QONUNIY BAZANI TAKOMILLASHTIRISH

⁵ www.wikipedia.org, www.google.com

AKT tizimini takomillashtirilishining qonuniy bazasini yahshi bilish kerak. O'zbekistonda "Elektron hokimiyat" haqidagi qonuni 9 dekabr 2015 yilda 3PY-395 nomeri bilan qabul qilingan bo'lsa, davlat oldida turgan asosiy jamiyat va biznes oldida turgan asosiy masalalarni hal qilishini inobatga oladi. Qonun innovatsion texnologiyalarni quyidagi vositalar bilan amalga oshirilishini inobatga oladi:

- Biznes va davlat hokimiyati organlarida bog'liqlik kanallarini yaratish – ruhsatlarda, sertifikatlarini olishda, shuningdek, davlat organlaridan axborotlarni olishda;
- Elektron komissiya tizimlarini qo'llash bo'yicha biznes imkoniyatlarini kengaytirish, elektron maydonlar orqali sotuvlarni amalga oshirish, nazoratning avtomatlashtirilgan tizimlarini qo'llash, kommunal to'lovlarni nazorat etish, to'lovlarni amalga oshirish;
- Aholi bilan muloqot kanallarini yaratish – "Yagona oyna" darchasini yaratish, social kommunikatsiyalar uchun virtual qabulhonalarni va boshqa maydonchalarni social kommunikatsiyalar uchun yaratish;
- Interaktiv xizmatlarning Yagona portalini va elektron davlat xizmatlarining Yagona reestrini shakllantirish;

Bu hujjatning ikkinchi juda ham muhim tomoni shundaki, davlat organlarining ishining shaffofligini, avtotransport vositalar, korxonalararo integratsion platformasi yaratilgan (75 sistema va resurslar).

O'zbekiston Prezidentining "Informatsion kommunikatsion texnologiyalar borasida loyihlarni boshqarishida takomillashtirish choralari to'g'risida"gi 29 avgust 2015-3245 buyrug'i asosida informatsion tizimlarni qo'llab quvatlash va yaratish bo'yicha Yagona integrator yaratish maqsad qilingan edi. U quyidagi masalalarni o'z ichiga olgan:

- "Elektron hukumat" tizimida informatsion tizimlarni, joriy etilishini, integratsiyasini, resurs va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqilishini ekonomika sohalarida qo'llash;

- kompleks tadbirlarni amalga oshirish davlat xizmatlarini sifatli darajada amalga oshirish bo'yicha kompleks tadbirlarni aholi va biznes subektlariga amalga oshirish;
- informatsionkommunikatsion texnologiyalar va dasturiy mahsulotlar bozorini rivojlanishiga yordam qilish;
- davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar o'rtasida axborotlarni almashish uchun information tizimlarni joriy etish.

Davlatimiz AKTni barcha sohalarda qo'llanishi bo'yicha o'z zimmasiga oldi.

HUKUMAT BILAN AHOLINING MULOQOTI

Aholi va davlat o'rtasida muloqotni o'rnatishning eng dolzarb loyihalardan biri bu O'zbekiston Prezidentining virtual qabulhonasini ishga tushirilishi. Bu erda uning funksionalligi-muhimdir, qabul qilish, akkumulirlashtirish, kelgan murojatlarni sinflashtirish, sistemalashtirish, monitoring va nazorat qilish, Virtual qabulhonada qung'iroqlarni ishlov berishning Yagona markazzi ishlaydi, u o'z navbatida sutka bo'yicha og'zaki murojaatlarni qabul qiladi. Shunday qilib, ikki kanalli so'rovlarni ikki kanalli qabul qilish va ishlov berishning platformasi yaratildi. Hozirgi kungacha 1-2 milliondan ko'p murojaatlar kelib tushdi.

Faol xizmatlarni jorilashtirish ham bunday kommunikatsiyalarni rivojlantirishga hissa qo'shdi, masalan, pasportni yangilash haqida, soliqlarni to'lash haqida axborotlarni, to'plamlarni olinishi.).

“Raqqamli ekonomika”ning global tendentsiyalarini inobatga olgan holda bizga ilmiy hajmli yo'nalishlarni rivojlantirishimizga to'g'ri keladi, bularga BigData, bulutli hisoblashlar, robototexnika va sun'iy intellekt tizimlari kiradi.

2017-2018 yillarda O'zbekistonda 2017-2018 yillarda tashqi savdoni va valyutani tartibga solishning to'liq erkinlashtirilishi sharti bilan Xalqaro Tadqiqot va Konsalting Kompaniyasi Xalqaro Ma'lumot Korporatsiyasining (IDC) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozori 2016 yilda 4,8 foizga o'sib, yiliga 6,9 foizga o'sadi. Shu bilan birga, xizmat

ko'rsatish segmentida eng katta o'sish 17,6 foizni tashkil etadi. Qurilma va dasturiy ta'minot segmentlari mos ravishda 6,1% va 13,6% gacha o'sadi.

IDC hisob-kitoblariga ko'ra, hukumat tashqi savdo operatsiyalarini, valyuta rejimi va shart-sharoitlarini liberallashtirish bo'yicha hukumatning barcha rejalarini bajarish sharti bilan AKT bozorining ishbilarmonlik o'sish sur'atlari avvalgi prognoziga nisbatan o'rtacha 30 foizga ko'pdir, bu esa ushbu choralarni hisobga olmadi. IDC kompaniyasi besh yil mobaynida O'zbekistonning AKT bozorida 83,5% 2016 yilga nisbatan, jumladan, uskunar segmenti - 76,9%, dasturiy ta'minot - 145,2%, xizmatlar - 171,5% ga o'sdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, aloqa va axborotlashtirishning rivojlanishidagi global tendentsiyalarda qatnashish uchun biznesning emas, aksariyat davlatning istaklarini ta'kidlash kerak. Bu xulosa aholi va davlat o'rtasida mavjud bo'lgan dolzarb masalalarni hal qilish uchun dialog platformalarini tashkil etish kabi AKT bunday segmenti bugungi kunda eng ko'p rivojlangani bilan izohlanadi. Biroq, bunday platformalar biznes bilan aloqa qilish uchun yaratilganligi, masalan, ish yuritish tartibini soddalashtirish, optimallashtirish, ruxsatnoma olish va hokazolarni olish uchun yaratilganligi, ammo bunday munosabatlarning tashabbusi ham tegishli hokimiyat organlari bilan ishnibirgalikda yahshilash, ishni optimal yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan..

Bir tomondan, bu eng katta ma'muriy resurslarga ega bo'lgan davlat rivojlanishning muhim omili rolini o'ynaydi.

AKT. Boshqa tomondan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT, birinchi navbatda, biznesning imtiyozi bo'lib, nafaqat texnologiyani qo'llash masalalarida, ularning ishlab chiqarish va sotish qismlari. Shu munosabat bilan yaqin kelajakda tabiiy moyillik davlat tomonidan tadbirkorlik uchun raqobatdosh aloqa texnologiyalarini ishga tushirish va rivojlantirish vektorini ulardan foydalanish, shu jumladan tijorat maqsadlarida foydalanishlari kerak.



O'zbekistonda AKTni rivojlantirish: 2018 yil yakunlari

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish har qanday davlatni rivojlantirish uchun zaruriy shart. Mamlakatimiz demokratik islohotlar va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lidan bormoqda. 2018 yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining axborot xizmati bizning muharrirlarimizga 2018 yilda AKTni rivojlantirish bo'yicha dastlabki natijalar berdi.

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi 2013-2020 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini kompleks rivojlantirish dasturiga muvofiq amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilishida Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasiga Kompleks dasturda

belgilangan loyihalarni amalga oshirish va amalga oshirishni o'z vaqtida ishga qo'yish vazifasi topshirildi.

Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun asos telekommunikatsiya infratuzilmasi hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda qabul qilingan chora-tadbirlar natijasida quyidagi natijalar qo'lga kiritildi:

Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish

Mamlakatning telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirishning hozirgi bosqichi keng polosali foydalana olishning tezkor va tezkor tarmoqlarini kengaytirish, ma'lumotlar uzatish va ovoqli o'tishni kommunikatsiya markazlarini kengaytirish, magistral telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va kengaytirish, multimediya xizmatlarini rivojlantirish uchun infratuzilmani yaratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanishning umumiy tezligi 2014 yil boshiga nisbatan 42,3% ga oshdi va 15,5 Gbit / sni tashkil etdi.

Xalqaro paketlarni almashtirish markaziga ulangan operatorlar va Internet-provayderlar uchun tarif 276,27 AQSh dollarini Mbit / s gacha pasaytirildi, bu 2014 yil boshiga nisbatan 11,6% kam.

G'uzor-Boysun, Denay-Uzun-Sharg'un, Jasliq-Qoraqalpog'iston, Mo'ynoq-Qibla-Ustyurt uchastkalarida zamonaviy texnologiyalar asosida keng polosali ulanish xizmatidan 2000 km dan ortiq optik-tolali aloqa liniyalari qurildi. "Uzoq - Tojikiston chegarasi" kabi videotelefoniya, internet-televidenie, yuqori tezlikdagi internet, HDTV-kanallarni tomosha qilish kabi konvergent xizmatlar taqdim etildi. Internetga keng polosali ulanish xizmatlarini taqdim etish uchun belgilangan portlar soni 640 mingga oshdi va foydalanilgan portlarning soni 135,1 foizga oshdi.

Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi simsiz aloqalarni rivojlantirishga ham hissa qo'shmoqda. Bugungi kunda uyali aloqa operatorlari to'rtinchi avlod 4G LTE tarmoqlarini joriy qilmoqda. Bu tarmoqqa foydalanuvchilarga Internetda katta

hajmdagi axborot bilan tez va samarali ishlashi, videolarni ko'chirib olish va ko'rish, yuqori sifatli fotosuratlarini yuklab olish va ta'lim maqsadlarida va biznes uchun onlayn dasturlardan foydalanish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalarning barcha mobillik nuqtai nazaridan O'zbekistondagi Internet foydalanuvchilari AKT bilan ishlashning odatdagi imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi.

O'zbekistonda mobil aloqani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Toshkent shahrida, viloyat markazlarida va respublikaning boshqa joylarida ovozli uzatish texnologiyalari (2G GSM), ma'lumotlar (3G UMTS) va yuqori tezlikda ma'lumotlarni uzatish (4G LTE) asosida mobil aloqa tarmoqlarini izchil rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatning barcha hududlarida axborot-kommunikatsiya xizmatlariga bo'lgan talablariga shoshilinch javob berish uchun "O'zbektelekom" ning yagona Call-Servis markazini, shuningdek davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ehtiyojlari uchun loyiha doirasida 13 ta call-markazlar tashkil etildi. Mazkur chora-tadbirlar telefon va Internet xizmatlarining sifati yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi.



Keyingi avlod texnologiyalari asosida mahalliy telefon tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish bor. Joriy yilda butun respublika bo'ylab 26 ta zamonaviy kommutatsiya qurilmalari foydalanishga topshirildi, bu esa telefon raqamlarining hajmini sezilarli darajada oshiradi.

Davlatimiz rahbarining 2014-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori

asosida Xitoy Xalq Respublikasi Davlat taraqqiyot banki ishtirokida umumiy qiymati 117,6 mln. AQSh dollarini tashkil etadigan telekommunikatsion infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Xitoy Xalq Respublikasi Davlat taraqqiyot banki tomonidan 100,0 mln. AQSh dollari miqdorida kredit mablag'lari hisobiga moliyalashtirildi. Ushbu loyihalar magistral ma'lumot uzatish tarmoqlari imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan: xalqaro yo'nalishda - 10 marta (100 Gbit / s gacha), viloyat markazlariga - 4 marta (40 Gbit / s gacha) va mintaqaviy markazlarga - 10 marta (10 Gbit / s).

Mazkur qarorni amalga oshirish doirasida FTTx texnologiyasidan foydalangan holda optik keng polosali ulanish tarmoqlarini rivojlantirishga 6,9 mln. AQSh dollari miqdorida shartnoma qiymati ajratilgan bo'lib, Toshkentning abonent liniyalarini keng polosali ulanish ma'lumotlarini uzatish uskunalari o'rnatish bilan 69,120 dona portni o'rnatish rejalashtirilgan.

Wi-Fi texnologiyasidan foydalangan holda simsiz keng polosali foydalana olish tarmoqlarining infratuzilmasini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash uchun imkoniyat yaratish maqsadida 2014-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasida Wi-Fi texnologiyasidan foydalangan holda keng polosali foydalana olish tarmoqlarini rivojlantirish dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturning maqsadi - aeroportlar, poezd stantsiyalari, tez-tez turistlar, bog'lar, savdo markazlari va Wi-Fi texnologiyasidan foydalangan holda keng polosali simsiz ulanishning boshqa jamoatchilik joylarida respublikaning har bir hududida tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli televideniye e'firinga texnik va texnologik o'tish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida" gi Qaroriga muvofiq televizion sohasida zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ishlar davom etmoqda. Dastur doirasida mamlakatimizda raqamli televideniye o'tish ikki bosqichda amalga oshiriladi: birinchisi - 2013-2015 yillar, ikkinchisi - 2016-2017 yillar.

Davlat dasturining birinchi bosqichi yakunida 84 ta yuqori kuchlanishli transmitter o'rnatilishi kerak, bu mamlakatning barcha yirik aholi punktlariga va aholisining 90 foizini raqamli televidenie orqali uzatish imkonini beradi. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 54 foizga yaqini raqamli televideniye ega: Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Xorazm, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining aholisi. Ular yuqori sifatli raqamli televidenie dasturlarini tomosha qilish qobiliyatiga ega.

Shu bilan bir qatorda mamlakat telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, telekommunikatsiya tarmoqlarida faoliyat yuritishi kerak bo'lgan axborot tizimlari va axborot resurslarini yaratish orqali zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy AKTni ishlab chiqish va joriy etish

Ushbu yo'nalishda "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tizimning ayrim elementlari, xususan:

- 32,6 mingdan ortiq normativ hujjatlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi.

- Barcha soliq to'lovchilarning 99 foizi elektron soliq hisobotlarini qabul qiluvchi va ishlaydigan soliq to'lovchilar portali.

- litsenziatning litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat berish tartib-taomillari ro'yxatida to'liq ma'lumot mavjudligi, litsenziyalar va ruxsatnomalar olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar mavjud bo'lgan yagona portal.

- Yil boshidan boshlab barcha yuklarni bojxona deklaratsiyasining 99 foizi elektron shaklda amalga oshiriladigan yagona deklarantlar portali.

- "eStat" avtomatlashtirilgan elektron hisoboti tizimini joriy etish natijasida elektron savdolardagi tovar nomlarini zaxiralash darajasi 97 foizga yetdi.

- Kommunal va uy-joy fondlari portali uy-joy kommunal xo'jaligida barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatadi, shu jumladan shikoyatlarni qabul qilish va qayta ishlash, kommunal to'lovlarni to'lash, shuningdek tariflar haqidagi ma'lumot.

- E-Visa axborot tizimining joriy etilishi munosabati bilan O'zbekistonga xorijiy fuqarolarga elektron shaklda berilgan vizalarning ulushi 90 foizdan oshdi.
- Iqtisodiy sudlarga 35 mingdan ortiq da'vo va ariza elektron sud tizimi orqali elektron tarzda topshirildi.

"Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Hukumat buyrug'i qabul qilindi, unga asosan elektron hukumat sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish, xususan, "Tadbirkor" axborot tizimini yaratish kompleksi, jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish, Milliy geografik axborot tizimini yaratish va boshqalar.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabrda 355-sonli qaroriga binoan davlat organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni baholash tizimi joriy etildi. Yillik baholash natijalariga ko'ra Markaziy bank, Moliya vazirligi, Ipoteka banki, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasi eng yuqori reytinglarga ega bo'ldi. Hisob-kitoblarning o'sishi yil boshiga nisbatan o'rtacha 13,5% ni tashkil etdi, bu interaktiv xizmatlarni ishlab chiqish va axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmoqda.

2014 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining barcha byudjet tashkilotlari "O'zASBO" yagona tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotlarni olib boradilar, bu esa butun hisob-kitob davrlarini avtomatlashtirish imkonini berdi.

E-SUD elektron sud ma'lumot tizimining pilot amaliyoti ham samarali faoliyat olib boradi, bu esa sudlarga taqdim etilgan hujjatlarni qayta ishlash bo'yicha 56 dan 25 gacha bo'lgan bosqichlarni qisqartirish imkonini beradi.

Interfaol davlat xizmatlari portali 2013 yil 14 fevraldagi PQ-1920-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Refah va farovonlik yili" Davlat dasturiga muvofiq yaratilgan sezilarli sur'atlarda rivojlanib bormoqda, bu orqali fuqarolar va tadbirkorlarga 96 mingdan ortiq yordamlar ko'rsatildi.

Elektron xizmatlar. Yagona portalning call-markazi 40 mingdan ortiq qo'ng'iroqlarni ko'rib chiqdi. Bugungi kunda portalda 230 ta interfaol xizmatlar mavjud.

2014 yilda Yagona portal orqali tadbirkorlik subyektlariga 45,6 ming elektron xizmatlar taqdim etildi. Xususan, 2014 yil 1 sentyabr kuni boshlangan import shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish xizmati orqali elektron shaklda.

Yagona portal orqali 7 mingdan ziyod tadbirkorlik sub'ektlari elektron shaklda ro'yxatdan o'tkazildi, 400 dan ortiq fuqarolar davlat organlari rahbariyatiga Internet tarmog'i orqali tashrif buyurdi.

2014 yil yanvar oyidan boshlab Yagona portalda yangi interaktiv xizmat ishga tushirildi, bu esa davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga bevosita O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga murojaat qilish imkonini beradi. Bugungi kunda portal foydalanuvchilari ushbu xizmatdan 2,2 mingdan ortiq foydalanganlar.

E-XATning idoralararo xavfsiz elektron pochta tizimi to'liq oqlandi va ishga tushirildi. Zero, davlat organlari tizim orqali 485 mingdan ziyod xat jo'natgan. Elektron raqamli imzo kalitlari foydalanuvchilari soni 720 mingdan oshdi (o'tgan yilning shu davriga qaraganda deyarli 2 baravar ko'p).

SMS bank va mobil banking xizmatlari orqali masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 412,5 mingga yetdi. Interaktiv va axborot xizmatlarining 650 dan ortiq turlari davlat idoralari veb-saytlari orqali taqdim etiladi, ular turli murojaatlar va hujjatlar olish uchun so'rov yoki so'rov yuborish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunga qadar 226 ta davlat axborot resurslari va 297 ta davlat organlarining axborot tizimlari ro'yxatga olindi, ular tashkilotlarning faoliyatini avtomatlashtirish va davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga elektron xizmatlarni ko'rsatish uchun ishlatilmoqda.

Internetning milliy segmentini rivojlantirishning yuqori sur'atlarini alohida qayd etish kerak. Bugungi kunda "UZ" zonasidagi domenlar soni 19 mingdan ziyod bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 111% ni tashkil etdi.

Joriy yilning boshidan buyon mahalliy veb-saytlarga 86,5 milliondan ortiq tashriflar amalga oshirildi. Bu raqam o'tgan yilga nisbatan ikki barobar ko'p.

Mamlakatning deyarli barcha ta'lim muassasalari Ziyonet ta'lim tarmog'iga ulangan bo'lib, bu axborot almashinuvi uchun yagona o'quv makonini yaratishga imkon berdi. Joriy yilda boshlangan Ziyonet ta'lim portalining yangi versiyasi, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosatning davlat dasturi (2005 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Ziyonet portali) doirasida amalga oshirilmoqda.

Ziyonet tarmog'i kutubxonasi 75 mingdan ziyod axborot va ta'lim resurslarini, jumladan, o'quv materiallarini, darsliklarini, dissertatsiyalarini, ilmiy maqolalarini va yana ko'p narsalarni to'plashdi. Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha yaratilgan interfaol bo'linga ingliz tilini o'rganish bo'yicha 4 mingdan ortiq o'quv materiallari va 400 ta axborot resurslari kiradi.

Mamlakat kutubxonalari va axborot markazlarining texnik jihozlari davom etmoqda. 2014 yilda Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrining IBS majmuasida zamonaviy kompyuter texnikalari, yuqori sifatli skanerlar, uzluksiz quvvat manbalari, kesish uskunalari, majburiy uskunalar bilan jihozlangan.

Bugungi kunda respublikamiz axborot-kutubxona tarmog'i rivojlanishining yangi bosqichida va mazkur loyiha doirasida bizning axborot kutubxona markazlari yanada samarali va o'zaro manfaatli bo'lishga imkon beradigan yangi darajadagi hamkorlik va hamkorlikni o'rnatish uchun haqiqiy imkoniyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-fevraldagi "2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatlari ko'rsatishni yanada sifatli rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1487-sonli Farmoni davlat darajasida muvofiqlashtiriladi. Axborot-kutubxona muassasalarining elektron kutubxonalari zallarini birlashtiradigan yagona axborot-kutubxonasini yaratish orqali axborot resurslaridan foydalanish, 2011-2015 yillarda ushbu loyihada elektron kataloglar

va ma'lumotlar bazalarining shakllanishi va to'planishiga, shuningdek, ushbu kataloglar asosida tuzilgan hujjatlarning to'liq matnlariga asoslangan dasturiy-texnik kompleksni yaratish ko'zda tutilgan. Loyihani bosqichma-bosqich amalga oshirishda 14 IBAning barcha texnik jihatdan yangilanishi va IBL elektron kutubxonalariga RILCis onlayn-kutubxonasining korporativ tizimini joriy etish, RILSis onlayn-kutubxona tizimiga (AILS) yuqori tezlikda Internetdan foydalanish va Korporativ tizim asosida yagona raqamli to'plamni shakllantirish kiradi. . Korxona tizimining asosiy qismi - bu Respublika Axborot Kutubxonasi Elektron Kutubxonasi (RIBTS) bo'lib, uni saqlash va boshqarishni ta'minlaydi va 14 ta mintaqaviy axborot markazlari bir-biriga bog'langan. CICda yaratilgan bosma raqamlashtirish tarmoqlari bosma manbalarning elektron nusxalarini yaratadi va RIBC elektron kutubxonasida serverlar uchun yagona (jamlangan) elektron katalog yaratiladi va u mazmunli tarzda kengaytirilib, original tarkibiy qismlarning bibliografik tavsifidan tashqari elektron kataloglar bilan bog'liq nashrlar to'liq matnlarini o'z ichiga oladi. Bu an'anaviy elektron katalogdagi izlanishlar natijasida topilgan bitta yoki boshqa manbaning mazmunini ochib beradi va uning to'liq matnini olish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish va mahalliy sanoatni rivojlantirishda boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarida eng zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarini joriy etish muhim rol o'ynaydi. Jumladan, 2014-2015 yillarda umumiy qiymati 330 mlrd. so'mdan ortiq yirik aksionerlik jamiyatlari, assotsiatsiyalari va assotsiatsiyalarida axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha 86 loyihani amalga oshirishni nazarda tutadigan davlat dasturi joriy etilmoqda.

Ichki bozor dasturiy mahsulotlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahalliy dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari doirasida dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilari milliy registri yaratilgan bo'lib, unda 69 mahalliy kompaniya kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 sentyabrdagi "Mamlakat dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2042-sonli qaroriga asosan dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilari uchun yangi imtiyoz va imtiyozlar joriy etildi. Shunday qilib, ular 2017 yilning 1 yanvariga qadar o'zlari foydalanadigan uskunalar, butlovchi qismlar, ehtiyot qismlar, komponentlar, texnologik hujjatlar va dasturiy ta'minot uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qilindi.

Axborot tizimlari va dasturiy ta'minot mahsulotlarini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida axborot texnologiyalari sohasida etakchi xorijiy kompaniyalar bilan, masalan, Koreya kompaniyasi LG CNS bilan hamkorlikda qo'shma korxona tuzish bo'yicha choralar ko'rilmogda.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib bormogda, ushbu sohadagi professionallarga bo'lgan talab o'sib bormogda. Shu bois, O'zbekistonda axborot texnologiyalari sohasida o'qitish vazifasi katta ahamiyatga ega.

AKTdan foydalangan holda pochta aloqasini rivojlantirish

Pochta jo'natmalarini vaqtini pasaytirish maqsadida 2014 yil axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishning samaradorligi turli soha mutaxassislarining AKT bo'yicha bilim darajasini oshirish bilan to'ldirilishi kerak. Shu maqsadda joriy yilda TATUda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyat organlari rahbarlari va xodimlari uchun trening o'tkazildi. Bugungi kunga kelib 63 ta muassasaning 16 mingdan ortiq xodimlari tayyorlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majmuasida oliy o'quv yurtlari bazasida 12 ta o'quv markazi tashkil etildi. Turli bo'limlardan 844 nafar xodim ushbu markazlarda ixtisoslashgan kurslarda o'qidi. Hozirgi kunda 1500 nafardan ortiq xodim o'qitilmogda, 2015 yilda esa 8200 nafar o'quvchi ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 26 martdagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1942-sonli qaroriga binoan

2014 yilda TATU va uning filiallarining 60 dan ortiq yosh va istiqbolli o'qituvchilari malaka oshirishdi.

Janubiy Koreya va Germaniyadagi kurslar. Bu sifatni, xalqaro standartlar darajasida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan aholini yangi texnologiyalarga tezkor jalb qilish zarurati tug'iladi. TATUning iqtidorli talabalari har yili iyul va avgust oylarida "Bunyodkor yoshlar" kompyuter savodxonligini tashkil etishdi. Ushbu kurslarda 2014 yilda 12 mingdan ziyod fuqaro ta'lim oldi. 2011 yildan beri o'qitilganlarning umumiy soni 33,6 ming kishini tashkil qiladi. Bu o'z navbatida, ayniqsa, mamlakat hududlarida aholining kompyuter savodxonligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimining rivojlanish strategiyasi ijobiy tendentsiyani ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining axborot xizmati.

Telegramda infoCOM.UZ telekanaliga obuna bo'lish, O'zbekistonning AKT yangiliklari haqida birinchi bo'lib ma'lumot olish imkoni paydo bo'lgan.

Test savollari:

1. Axborot texnologiyalari nima?
2. AKT axborot va kommunikatsiya texnologiyalari nimani anglatadi?
3. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi qanday?
4. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi qaerda?
5. Qaysi farmonlar, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha qonunlar bilasizmi?
6. Siz qanday axborot texnologiyalari bilan tanishasiz?

7. Elektron biznes qanday?
8. Elektron ta'lim nimani anglatadi?
9. Ekspert tizimlari nima?
10. Bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish texnologiyasi nima?

Nazorat saollari:

1. Axborot texnologiyalari nima? O'quv kursining bir bobi, qismi, qism yoki bob ma'ruzalardan, mavzulardan, modullardan tashkil topgan ta'lim qanday ta'lim deyiladi?
2. Texnologiya so'zining ma'nosi qanday?
3. Axborot texnologiyalarining turlari qanday?
4. Axborot texnologiyalarining turlari qanday? Ularning vazifasi nima?
5. Ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llashning dolzarb vazifasi nimada?
6. Konsepsiya nima?
7. O'quv moduli, modulli ta'lim nima?

Asosiy adabiyotlar

1. Evans V., Dooley J., Wright S. Information Technology. Express Publishing
2. Gromov YU.YU. Informatsionnye texnologii. Tambov 2015
3. Zaxarova I.G. Informatsionnye texnologii v obrazovanii. Moskva ACADEM'A 2003
4. David Watson and Helen Williams Computer Science//IGCSE is the registered trademark of Cambridge International Examinations. Buyuk Britaniya/Hodder Education. An Hachette UK Company London NW1 3BH 2014, 278p.
5. Stelle Cottrell, Neil Morris Study Skills Connected. Buyuk Britaniya/Palgrave Macmillan 2013, 183p.

6. Hartoyo.(2012). ICT in Language Learning.Semarang: PelitaInsani Printing and Publishing

7. R.R.Bokiyev, A.O. Matchanov, Informatika, “O’qituvchi”, Toshkent, 2010, 374 bet.

8. Usmonov A.I., Baxramov F.D. Kompyuter texnologiyalari asoslari. T., 2010

Qo‘shimcha adabiyotlar

9. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.

10. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.

11. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda 13. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy

javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

14. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2014. – 46 b.

15. Esteras, S.R., & Fabre, E.M.(2007) Professional English in Use for Computers and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press.

16. Kerres Michael. Mediendidaktik. 4., überarbeitete und aktualisierte Auflage. Oldenbourg Verlag. München. 2013.

17. Gerardo Arrarte Carriquiry. Las tecnologias de la informacion en la enseñanza de español. Arcolibros. España 2011
18. Petko Dominik. Einführung in die Mediendidaktik. Beltz Verlag. Weinheim und Basel. 2014.
19. Mrs. C.Y. Munasinghe, B.Sc. (OUSL); M.Sc. (Colombo) ICT SKILLS, 2013, Open University of Sri Lanka, p.-393
20. Yu.Yu.Gromov, I.V.Didrix, O.G.Ivanova, M.A.Ivanovskiy, v. G.Odnolko
Informacionnyye texnologii, Izdatelstvo FGBOU VPO «TGTU», Tambov, 2015, 260 str.
21. Chris Abbott ICT: Changing Education, London and New York, Routledge Falmer, 2001, 45p.
22. Olifer V.G. Kompyuternyye seti. Printsipy, texnologii, protokoly. Uchebnik dlya vuzov. Piter, 2015 g. ISBN 978-5-496-01967-5. 992str.
23. Simonovich S.V. Informatika. Bazonyy kurs. Uchebnik dlya VUZov. Piter, 2013 g. BISBN 978-5-496-00217-2, 978-5-459-00439-7. 637str.
24. Gubanov D.A., Novikov D.A., CHxartishvili A.G. Sotsialnyye seti. Modeli informatsionnogo vliyaniya, upravleniya i protivoborstva. 2010 god. 228 str.
25. Maksimov, N. V. Sovremennyye informatsionnyye texnologii: ucheb. Posobie/N.V. Maksimov, T.L.Partyko, I.I.Popov. — M: FORUM, 2008. - 512s:il.
26. Govard, D.Sozday svoyu fotoistoriyu. Delimsya vospominaniyami s pomoshchyu Photoshop Elments i sifrovoy kamery=Budushchee vospominaniy. Kak podelitsya momentami svoey jizni s pomoshchyu PhotoshopElments i sifrovoy kamery / Deyn Govard. - M.: NT Press, 2008. - 208 s.
27. Sifrovoe budushchee. Katalog navykov media- i informatsionnoy gramotnosti /avt.: A. YU. Dombrovskaya i dr.; per. s angl. O.V.Tereshkina; YUNESKO. – Moskva: Mejregionalnyy sentr bibliotechnogo sotrudnichestva, 2013. – Origin. tekst podgot. Fondom «Sovremennaya Polsha».

Internet saytlari

1. <http://books.nap.edu/books/0309074398/html/index.html>.
2. <http://coe.etsu.edu/departments/cuai/starlinks/assess.htm>.
3. <http://www.newideas.net/index.html>.
4. <http://www.lexically.net/downloads/version6/HTML/?wshell.htm>
5. <http://khc.sourceforge.net/en/>
6. <http://fonsg3.hum.uva.nl/praat/>
7. <http://www.exmaralda.org/>
8. <http://www.tes.co.uk/english-secondary-teaching-resources/>
9. <http://web2.uvcs.uvic.ca/courses/elc/studyzone/>
10. <http://ww2.college-em.qc.ca/prof/epritchard/>
11. <http://www.elllo.org/english/>
12. <http://www.englishclub.com/>
13. <http://www.esl-lab.com/>
14. <http://www.academicenglishcafe.com/>
15. <http://owl.english.purdue.edu/owl/>
16. <http://www.yourdictionary.com/>
17. <http://bogglesworldesl.com/>
18. <http://www.englishformyjob.com/index.html>
19. <http://legacy.lclark.edu/~krauss/toppicks/toppicks.html>
20. <http://www.esl-galaxy.com/vocabularysheets.html>
21. www.breakingnewsenglish.com
22. <http://larryferlazzo.edublogs.org/the-best-sites-to-practice-speaking-english/>
23. <http://skillsforlearning.leedsmet.ac.uk/glossary/a.shtml>
24. <http://www.dpi.state.nc.us/curriculum/computerskills/scos/20glossary>
25. <http://www.palgrave.com/skills4study/>
26. <https://www.coursera.org/course/ticyeducacion>
27. <http://www.uv.es/bellohc/pedagogia/EVA1.wiki?all>

28.http://www.fundacionsanTillana.com/upload/ficheros/paginas/200906/xxi_i_semana_monografica.pdf

28.<https://www.google.com/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=10&cad=rja&uact=8&ved=0ahUKEwjBiZ>

29.http://mx.televisioneducativa.gob.mx/courses/CONAPASE/CONAPASE_TIC_2016/2016-S1/about

2-modul. Zamonaviy o‘quv-texnik vositalar.

Reja:

1.Zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quv-texnik vositalari: kompyuter sinflari.

2.Multimedia proektorlar, elektron doska, Smart mobil qurilmalar hamda ular bilan ishlash usul va vositalari.

3. Turli tizimli va boshqa ko‘rinishdagi ilovalar tasnif va tavsifi, foydalanish tartibi.

Kalit so‘zlar: video-proektor, multiproektor, electron doska, modem, grafoqurilma,printer, kolonkalar, videoblaster,multimediya vositalari, naushniklar.

Asosiy matn:

Zamonaviy o‘quv texnik vositalarga multiproektor, videoproektor, elektron doska, kompyuter sinfidagi texnik vositalar, kolonkalar, videoglaz, mikrofon, dasturlar, elektron doska, Smart mobil telefonlar, kompyuter sinflari kiradi. Ularning har birining tasnifi va ishlatish prinsipi, qoidasi bo‘ladi. Videoproektor-protsessor bilan o‘zini ulab, ekranda fleshkadagi, kompyuterdagi ma’lumotlarni katta qilib chiqarishga mo‘ljallangan qurilma. Videoproektorlar oddiy va sensorli bo‘ladi. Kompyuterlar ham oddiy va sensorli ekranli, klaviaturali bo‘lishi mumkin. Sichqoncha ham oddiy va sensorli bo‘ladi. Bu zamonaviy texnik qurilmalar. Zamonaviy klaviaturalar ham sensorli ko‘rinishga ega. Kompyuter sinflari kompyuterlar bilan jihozlangan, kolonkalar, videoglaz, sensornyy televizor, printer, skaner, modem va boshqa qurilmalar bilan jihozlangan.

AKT yani axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish hozirda muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi! Ta'limda ohirgi vaqtda yangi texnologiyalar paydo bo'lmoqda, misol uchun, interaktiv doskalar, multiproektorlar, Smart kitob tushunchasi paydo bo'lmoqda. Testlash, testdan o'tkazish tizimlari(Uchitel-60), planshetlar, dasturiy ta'minot paydo bo'lmoqda, hammaga mashhur bo'lib kelayotgan mobil tizim ta'limga ham kirib kelib, Android, iOS kabi yangi mobil operatsion tizimlarini foydalanuvchi uchun mashhur qilib kelmoqda. Yangiliklardan, yangi texnologiyalardan, vositalardan foydalanish ta'limda samarali natijalarni bermoqda. Lekin har safar ham AKT bilan shug'ullanish samarali natija bermasligini unutmaslik kerak. Interfaol doskadan foydalanishning uslubiy tavsiyanomalari bormi, bu doskada foydalanishga ko'rgazmali elektron qo'llanmalarni yaratish buyicha yo'l yuriqlar ishlab chiqilgan vositalar, islanmalar bormi? Bugungi kunda elektron qo'llanmalarni interaktiv doska uchun qo'llasga yagona fikr va tavsiyalar, uslubiy jihatdan qo'llaniladigan yagona talabalar yo'q. Lekin o'qituvchilarning, yani bizning va boshqa o'qituvchilarni bu doskadan foydalanish buyicha tajribalari ko'p, maslahatlar va uslubiy ko'rsatmalar berishga qodir. Bu borada juda qiziqarli bir nechta saytlar bor, u orqali Smart interfaol doska bilan ishlash buyicha yo'l-yuruq olish mumkin. Mana ulardan bir nechitasi:

1. <http://smartboard.com.ua/ru/main.htm> - SMART Board boshlovchilar uchun.
2. [SMART Board nachinayumim](#) –Interfaol texnologiyalar.
3. <http://www.smartboard.ru/view.pl?mid=1125315109> –Smart namunali o'qituvchi konkursida o'qituvchilarning darslari ko'rsatilgan.
4. SMART interaktiv doska uchun bir necha uslubiy ko'rsatmalar - <http://edcommunity.ru/>

Bu saytlar orqali turli darslarda doskadan foydalanish buyicha ma'lumot olish mumkin.

[http://www.smarttech.com/ca/Support/Browse+Support/Download+Softwar](http://www.smarttech.com/ca/Support/Browse+Support/Download+Software)

e – bu murojaatga kirib, undan interfaol doska uchun kerakli Dasturiy Ta'minotni yuklab olish mumkin.

Ommaviy taqdimotlarni amalga oshirishda eng muhim qism hisoblanadi. Interfaol doska orqali bitta qo'l tekizish orqali barcha ilovalar bilan ishlash, barcha virtual buyuruqlardan foydalanish mumkin. SMART board interfaol doskalarining (SmartBoard doskalarining) spesifikasi⁶— barmoqlarda boshqarishni amalga oshirishda, bu doska yordamida mahsus uskunalarsiz va bilimlarsiz barmoqlarning uchlarini tekkizib, foydalanish imkonini beradi. Doska ixtiyoriy uni tekizishni sichqoncha tugmasini bosish kabi qabul qiladi. Interfaol doskani toliq ishlatish darsda o'qituvchiga ishni samarali amalga oshirishga imkoniyat beradi. Lekin ko'p pedagoglar-interfaol doska –bu doskani yoqish bilan uning sifatini o'zgartiruvchi narsa emasligini bilishlari lozim, albatta undan foydalanishda o'qituvchining doskani hamma jihatlarini maksimal darsni samarali o'qitishga yo'naltirilganligi bog'liq bo'ladi, yani o'qituvchinining bilim va uslubiyotiga bog'liqdir. Amaliyot shuni ko'rsardiki, ko'pchilik jihozni qo'llashni bilmasligida va electron doskaning imkoniyatlarini bilmaslikdan kelib chiqadi, lekin uni o'rganib olgandan so'ng undan foydalanish oson va darsda qo'llashga kerakliligini va o'qituvchiga osonlik yaratishini aniqlanadi. Avval o'qituvchi electron doskani ekran sifatida, keyin yozish uchun soha sifatida yani oddiy doska sifatida ishlatadi, keyin esa bu funksiyalarni juda yahshi birgalikda olib boradi: taqdimotning o'zida tushuntirishga oson bo'lish uchun yozishga joy qoldiradi yoki alohida yozuvlarni, rasmlarni, taqdimot bulimlarini strelkalar orqali bog'laydi. PowerPoint ishlatiladimi yoki doskaning dasturiy ta'minotimi o'qituvchi o'rganilgan format doirasidan chiqib ketmaydi. Har safar ham talabalar darsda undan foydalanish yoki darsda uni qo'llashga imkon topa olmaydilar, bu esa electron doskani darsda qo'llash imkonini yanada toraytiradi. Interfaol doska darsda foyda keltirishi uchun nima qilish kerak? Bu yo'ldagi birinchi qadamlar

⁶ <http://smartboard.com.ua/ru/main.htm> - SMART Board boshlovchilar uchun.

juda sodda, keyinchalik jarayon o'qituvchi va uning electron materiallarni tayyorlashiga va tirishqoqligiga bog'liq bo'lsada, uning harakatlari kerakli yahshi natijani beradi. Bitta priyomlardan biri- berkitgan narsani ochish. Uni qo'llanilishi oldindan interfaol darsning sahifalarida sinf oldida taqdim etiladigan axborotni oldindan joylashtirishga imkon beradi.

Bu usuldan foydalanishning eng asosiy yo'li-bu tug'ri javoblarni berkitish: talabalar tomonidan bunday berilgan topshiriqlarning javobini mustaqil toppish topshirig'i ijobiy qabul qilinadi. Bu uslubdan foydalanuvchi o'qituvchilar, talabalar darslarda faol ishlaganlarini va doskaga chiqish hohishlari ancha yuqori bo'lishini aytishadi. Elektron doskalar ma'lumotlarni turli yashirish imkoniga ega. Bu imkon doskaning turiga, uning dasturiy ta'minotiga bog'liq. Misol uchun, Panasonic interaktiv doskalarda boshqa interaktiv doskalarda yo'q imkoniyat bor, yani «soyalashtirish», bu imkoniyat bitta ko'lni tekkizishda ma'lum bir ob'ektni yashirish yoki ochish imkoniga egadir-yozuvni yoki rasmni misol uchun aytsak, shunday amaldan foydalanish imkoni mavjuddir. Boshqa funksiyalar universal, ihtiyoriy ishlab chiquvchi uchun ko'gazmaliligiga ko'ra, funksiyalarini bajarilishi buyicha farqlanadi va uar turli hil bo'lishi mumkin. Lekin priyomlar ichida bir nechta oson priyomlar borki, ulardan o'qituvchi darsda foydalanishi mumkin.

Axborotni yashirish funksiyasi bilan ishlashning asosiy priyomlari:

- Yozuvni yoki yozuvning bir qismini, rasimni, tasvirning fragmentini yashirish uchun, uni marker yordamida bo'yash kifoya. Yashirilganni lastik yordamida ko'rsatish mumkin⁷;

- Bo'yashning juda yorqin rangi tug'ri javobni ko'rishga olib keladi, yani yorqin ranglar tug'ri javob tomon talabani chorlaydi;

- Fon rangida bo'yalgan yozuv o'qituvciga dars jarayonida qo'l keladi, bu so'zda qoldirilgan harflar yoki gapda to'ldirishga qoldirilgan matn bo'lishi mumkin, matematik misollarda javoblar ham bo'la oladi;

⁷ 2. [SMART Board начинающим](#) –Interfaol texnolgiyalar, Smart boshlovchilar uchun.

- Matnni yashirishda uning ustiga to'rtburchak chizib quyish mumkin yoki uning ustiga rasm quyishimiz mumkin, dars jarayonida kerakli joyda uni ochamiz va talabalarning bergan javoblarini tekshirishlari mumkin bo'lib qoladi. Talaba bergan javobni o'qituvchi yashirib, tug'ri javobni beradi. Rasm nafaqat javobning joylashuvini, balki uning ortida nomlanishni yoki tugri so'zni ham joylashtirishi mumkin. Misol uchun ingliz tili darslarida rasm orqasida hayvonning yoki gulning nomi bo'lishi mumkin. Yashiruv nafaqat o'quvchilarni darsga qiziqtirishda, balki qushimcha visual darsdagi ayrim jihatlarni qaytarish uchun ham qo'llaniladi, yani darsning muhim terminlarini, yangi so'zlarni qaytarishda ishlatiladi. O'qituvchi doskada bajarilayotgan barcha jarayonlar ustida nazoratni boshqara oladi. Misol uchun, o'qituvchi savvollariga tug'ri javoblarni topishga doir materiallarni yashirishi mumkin, agar auditoriya javoblarni topa olmasa, yashirilgan tug'ri javoblarni ko'rsatish mumkin. Bu auditoriyaning zakovatiga bog'liq. Yashirish boshqa ish shakllarida ham qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, materialni tushuntirishda asta-asta uni tushuntirib, ochish mumkin. Interaktiv doskada ishlashga – bitta kunduzgi seminarda yoki Internetdagi video-darslarni amalda ko'rsatish mumkin. Bir necha priyomlarni o'rganib olish, yahshi natijalarga olib keladi. Asosiysi-interfaol doskaning imkoniyatlarini bilib olish, faqat o'qituvchigagina electron doskadan foydalanib dars o'tishda uni oddiy videoproektor yoki chinakam darsda qo'llaniladigan vosita bo'lishiga bog'liqdir. Kechagina kitob, daslik, kartochkalar, qog'ozli plakatlar – pedagogik texnologiyalarning tashkil etuvchilari edi, zamonaviy maktab, litsey va oliy o'quv yurti uslubiy uskunalarni shahsga yo'naltiruvchi aspektni kuchaytirish maqsadida ko'rib chiqishga majbur. Yangi information texnologiyalar bunda katta ahamiyatga ega.

Informatika o'qituvchisi va ingliz tili muallimi ham hisoblash texnikasining, vositalarini rivojlanishini kuzatib yurishi zarur. Yangi dasturlarni paydo bo'lishini, ularni o'zining va boshqa spesifikalarga doirligini yahshi tahlil qilmog'i kerak. Dasturlar ustida ishlashni bilishi, o'z faniga yangi ishlanmalarni, ta'lim resurslarini

yarata bilishi kerak. Hozirgi kunda maktab informatikasini, axborot texnologiyalari fanini fan sifatida oyoqqa turishi hamon kuzatilmoqa: uning tarkibi aniqlanmoqda, o'quv plandagi joyi, prinsiplarning uslubiy tizimi yangilanmoqda, ta'limga yangi yondoshuvlar o'zgarib kelmoqda. Berilgan fanni o'qitishning eng muhim tashkiliy sharoitlari bo'lib, kompyuter sinfni zamonaviy mashinalar bilan jihozlash, Internetga kirish va chiqish borligi hisoblanadi.

Talabalarni zamonaviy o'quv-tehnika vositalari: videoproektor, multiproektor, elektron doska, zamonaviy kompyuter va uning asosiy hamda qo'shimcha qurilmalari, modem, scanner, planshet, noutbuk, kolonka, rezograph, nurli pero, video-ekran, video-blaster, on-line konferensiya o'tkazishga oid texnika vositalari, grafoqurilma (grafopostroyitel) va boshqalar haqida tushuncha berish va tushunchalarini internetdan o'qib-o'rganish orqali to'ldirish.

Amaliy mashg'ulotning nazariy bayoni: Kompyuteringizga multiproektroni ulash uchun avval uning kabelni kiritilishi zarur bo'lgan joylarini ko'rib olishingiz kerak:



15- Rasm . Kompyuterni o'rganish. Kabel ulanishi joylarini izlab topish. Keyin esa kabellarni ulash uchun kabelni olamiz. 16- Rasmga qarang.




Bu erda VGA kabellarni ko'rib turibsiz, uni kompyuteringizning shunday mos hajmli joyiga kiritasiz. Proektroni ulanadigan sanchkilarini ko'rib chiqib, kerakli manbaga tiqamiz. 17- Rasm.



Endi proektrotni ulaymiz. 18-Rasm. Buning uchun uning kabel ulashga mos hajmli joylari bilan tanishamiz. Hozirgi kunda videoproektor, elektron doska bilan multiproektrolardan foydalanish maqsadga muvofiq.



19-Rasmda videoproyektorning ko'rinshi tasvirlangan. Epson rusumli videoproyektor. Kolonkalarni ovoz eshitish uchun ulaymiz. Kolonkalar ham rusumiga qarab, turli bo'lishi mumkin.



Kolonkalarining kabelining uchi kiradigan hajmli joylarni ko'rib topamiz.

20-Rasm. Kolonkaning ko'rinishi.



Kabelni kompyuter va videoproektroga ulang. Undagi gaykalarni burab, kabelni kompyuterga qotiring. 21-Rasm kabelni kompyuter va videoprojektorga ulash.




Keyingi uchini proyektorga ulang va uni ham hajmli joyga qotiring. 22-Rasm. Kabelning kompyuterga va videoprojektorga ulanishi.



Videoproyektorga ikkinchi uchi ulanadi. 23, 24-Rasmlar.



25-Rasm. Kabelning ukki uchi ulandi.



26-Rasmda Vga kabelni kompyuteringizdagi Vga connectorga hamda proektrodagi VGa portga ulaymiz. Proektorga ulagan joyingizni gaykalarini burab, qotiramiz. 25,26-Rasmlar.



Endi videoproektorga ulagan joyimizni qotiramiz. 25-27 Rasmlarni ko'ring. Proektroning energiya manbasiga bog'lanadigan shtepsel vilkasini/shtepsel sanchgichini proektorga va elektr chiqish tuynigiga ulash kerak.

Kabelni bunga mos tomonini topib olamiz va uni mos hajmli joyni topib, ulaymiz. 28-Rasm.




28,29, 30 Rasmlarda kabel ulanish jarayoni ko'rsatilgan.




Videoproektorga qulimizda harakat qilib, vilkani yahshilab o'rnatib olamiz.



31-Rasm. Elektr manbaga ulanadigan tomonini ham manbaga ulaymiz.




Endi proektorni va kompyuterni yoqib, ularni ishlatamiz. Avval kompyuterimimizni yoqib, ishga tushiramiz. 32-Rasm.




Keyin esa videoproektorni yoqamiz va uni ham ishga tushiramiz, u qizib ishga tushadi. Buning uchun kerakli tugmani bosamiz. 33-Rasmga qarang.



Kompyuteringiz ekrani yonadi, buning uchun siz quyidagi funksional tugmalardan birini bosihingiz mumkin: F4, F5,F7,F8. 34-Rasm.



Klaviaturadagi Fin tugmasini bosib, misol uchun, keyin F5 tugmasini bosishimiz mumkin. 35-Rasm.



Proektorning qapqog'ini ochamiz. Unda surish mumkin bo'lgan joy focus masofani tug'irlashga moslangan. 36-Rasm.

Endi proyektorning kapqog'ini ochib, uning ichidagi tugmani surib, focus masofani tug'irlab olamiz. 37,38 Rasmlar.



38 Rasmda ko'rsatilgandek, proyektorning focusini shunday suriladi.



Ekranda bizga to'g'ri keldigan tasvirni hosil qilib, materialni kompyuterdan tanlab, uni ekranga chaqirib olamiz. 39,40,41- Rasmlar.



Endi audioovozni chiqaruvchi uskunani ulashimiz mumkin. 40 - Rasm.



Bunga mo'ljallangan simni avval kompyuterdagi sohaga keyin esa uskunadagi sohaga ikkinchi uchini tiqishimiz kerak. 41-Rasm.



42 - Rasmda ko'rsatilgandek, endi simning ikkinchi uchini ovoz chiqaruvchi uskunaga(kolonkaga) suqamiz.



Uskunadan kerakli joyni topib, sim uchini ulaymiz. Bu simning uchi metalli qoplamali bo'ladi. U tokni unga etishi uchun qulay bo'lishini ta'minlaydi. 43-Rasm.



Kolonkani ulanganligini bildiruvchi lampochka yonadi. 44-Rasm.



Shu tariqa kompyuterimizni videoproektorga ulab, ekranga materiallarni akslantirishimiz mumkin.45-Rasm.



Bu oson jarayon. Buni o'rganib olish qiyin emas. 46-Rasm.



Shunday qilib Epson rusumli videoproektorni kompyuteringizga ulashni o'rgandingiz va ekrnada kompyuterdagi ta'li resurslarni hamda lektron resurslarni ko'rishingiz mumkin. 47-Rasm.



Ma'lumki, o'quv jarayoniga multiproektor kirib kelgani bilan, o'qituvchi taqdimot orqali darsni katta ekranda katta hajmdagi auditoriyaga o'tishni boshladi. Yani videoproektor katta hajmdagi auditoriyani taqdimoti bilan qamrab olish imkoniyatini berdi. Bu oqituvchiga ancha katta yordam berdi, darslarni mazmunli va qiziqarli o'tishiga zamin yaratdi. Keyinchalik dars jarayoniga TRACEBoard rusumli elektron doska kirib keldi, uni videoproektorga ulab, qalamlari yordamida doskada bir vaqtning o'zida talabalar bilan ishlash imkoniyati yaratildi. Elektron dokaning o'ziga hos uskunlar paneli mavjud. Keyinchalik sensorli doskalar o'quv jarayonini yanada qulay tashkil etishga zamin yaratdi. Endi o'qituvchining qo'li uchida yozish va doskani uchirish imkoniyatlari paydo bo'ldi, bo'r va latadan umuman voz kechildi. Sensorli elektron doska orqali bir vaqtning o'zida bir necha qismlarga bo'lib, turli resusrlarni ko'rsatish mumkin: rasmlarni, taqdimotni, animatsiyalarni va boshqa resurslarni namoyish qilinadi.

IDBoard rusumli sensor doska kichkina qora rangli protsessorga ulanadi, yani uning oq doskasi Epson rusumli multiproektorga ulanadi. Multiproektor-bu multimedialli proektordir. Multiproektor Epson protsessorga mahsus HDML kabel va to'g'ri kabel orqali ulanadi. Oq ekranli elektron doska, Epson multiproektor va protsessor birgalikda ulanadi va ishlanadi. Protsessorda 3ta tugma bo'ladi: White

Board, Epson multiproektor, Search Source, yani oq doskani yoqish, Epson multiproektorni yoqish hamda resursni almashtirish mumkin.

Doskada yoqilganda u bir necha sohalarga bulinib chiqadi, masalan kompyuter bilan ishlaydigan soha, mobil telefon orqali Wi-Fi orqali ishlaydigan, ko'p foydalanuvchilar bilan ulanadigan soha va boshqalar. Kompyuter bilan ishlaganda kompyuterning va elektron doskaning chizish imkoniyatlaridan birgalikda foydalanish mumkin bo'ladi.

IPBOARD elektron doskasi va uni dasturiy vositalarini o'rnatish.

Interaktiv doska

Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining yana bir yutug'i shundan iboratki, internet tizimidan erkin foydalana olishligi bo'lsa ikkinchi videokonfrensiyalarlarni oddiy markerli doskalardagi ma'lumotlarni interaktiv doskalar bilan bog'lay olishligidadir. SMART texnologiyasi asosida ishlab chiqarilayotgan interaktiv doskalar qo'yidagi qulayliklarni foydalanuvchilarga tag'dim etmoqda. Yani ikki qavatli setkaga ega bo'lgan yuqori tasvirlarni katta ekran ko'rinishida namoyish eta oladigan, ekran bo'ylab nuqtalar soni 2000*2000 ko'rinishida joylashtirilgan bo'lib, bu namoish etilayotgan tasvirning barcha imkoniatlarini ko'rsatib beradi. Interaktiv doskalar o'z navbatida ikki hil ko'rinishda ishlab chiqariladi: to'g'ri va teskari proeksiyali.


Interaktiv doskalarining ohirgi variantlari loyihasi proeksion televizor ko'rinishida ishlab chiqilgan bo'lib, bunda proektorlar doskaning orqa tamonida joylashgan bo'ladi, bu esa tushuntirish ishlarini olib boruvchining ko'ziga nur tushushidan saqlaydi. Mahsus dasturlar asosida fayllar o'chirilib, so'ngra albom ko'rinishida ma'lumotlarning saqlanishini amalga oshiradi. Bundan tashqari foydalanuvchilar tomonidan tayyorlangan materiallar yoki rasmlar oldindan namoyish etilish xususiyatlari mavjud. Doskaning pastki qismida joylashgan tugmalardan birini bosish evaziga, klaviatura yordamida kerakli tasvirlarni chaqirib olish mumkin bo'ladi, virtual holatda joylashgan tugmalar yordamida matnlar yozish imkoniyati ham mavjud.

Shuni alohida takidlash lozimki, interaktiv doskaning ishlash tizimini, kompyuter oldindan bilishi kerak, buning sababi shundaki tasvir doskaning qaysi joyiga yo'naltirilisa, shu nuqtadan tasvirni uzatishni mu'ltiproektor yordamida amalga oshiradi.

Interaktiv doskalar asosan uch hildagi ranglar bilan ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanuvchi nur taralayotgan nuqtaga rang belgisining birontasini o'rnatishi bilan doska shu rangda tasvirlarni ko'rsatib beradi.

IPBOARD elektron doskasi Julong Educational Technology Co., Ltd (Julong) kompaniyasi tomonidan 2008-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunda ta'lim sohasida, biznes sohasida va harbiy sohalarda keng qo'llanilib kelmoqda. Ushbu interaktiv doska raqamli texnologiyalarning so'ngi kombinatsiyalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

IPBOARD interaktiv doskasi oddiy maktab doskasidan farqli ravishda maxsus dasturiy ta'minotga ega va ushbu dasturiy ta'minot ostida bir qancha qulayliklarga ega. Interaktiv elektron doska shaxsiy kompyuterlar uchun qo'shimcha qurilma bo'lib hisoblanadi. Uning yordamida kompyuter va proektordan foydalangan holda prezintatsiyalar, tekstlar va rasmlarni taxrirlash, ularni namoish etish, yaratish va bosmaga chiqarish mumkin. IPBOARD interaktiv doskasi elektromagnit displey hisoblanadi. U kompyuter va proektor bilan birgalikda tizimning bir qismi sifatida ishlaydi.



48-rasm. Ishlash prinsipi.

Интерактив doska xuddi monitordek ishlaydi va qo'shimcha qurilmalar hamda dasturiy ta'minoti ishga tushirilganda kompyuterni boshqarish imkoniyati yuzaga keladi. Bunda yordamchi vosita sifatida elektron markerlardan foydalaniladi.

Elektron marker kompyuterning qo'shimcha qurilmasi sichqoncha vazifasini bajaradi. (49-rasm). Masalan to'g'ri chiziq chizish uchun markerni interaktiv doskasining yuzasiga tekkazib tortishning o'zi kifoya qiladi. Sichqoncha o'ng tugmasi vazifasini elektron markerning maxsus tugmachasi bajaradi.



49-rasm. Elektron marker.

IPBOARD elektron doskasida prezintatsiyalar namoish qilish va doskadan foydalanishda elektron markerlardan foydalaniladi. Bu elektron markerlarning oddiy markerlardan farqi shuki u orqali kontekst menyusini hosil qilish mumkin. Oddiy markerlarda esa bunday imkoniyat mavjud emas. Elektron markerlar yordamida dasturlarda bosma yozuvlar yozish ham mumkin. Buning uchun “Экранная клавиатура” dan foydalaniladi. (50-rasm).




51-rasm. Экранная клавиатура.

Elektron doska ayniqsa masofaviy ta'lim jarayonida foydalanish juda qulay vosita bo'lib hisoblanadi. Bunda bir vaqtning o'zida bir qancha auditoriyalarda o'z

prezintatsiyalarimizni namoish qilishimiz mumkin. Bu jarayonni qo'yidagi topologik diagramma orqali ko'rishimiz mumkin. (51-rasm).


Topologik diagramma.



52-rasm. Masofadagi IPBOARD elektron doskasi bilan ishlash topologik diagramma.

Ushbu digrama yordamida biz shuni ko'rishimiz mumkinki, bizning prezintatsiyalarimizni, bir qancha, bir auditoriyada sig'ishmaydigan kishilar jamoasi ko'rish imkoniyatiga ega. Bunday imkoniyatdan foydalanish uchun internet tarmogi orqali aloqa mavjud bo'lishi kerak. Anologli va multimedia qurilmalari yordamida bir joydan turib, bir vaqtning o'zida, sayyoramizning istalgan nuqtasida barcha uchun o'z prezintatsiyalarimizni namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bunda internet bizga o'rtadagi kommutatsiya jarayonini amalga oshirish uchun kerak bo'ladi. Kompyuterning IP adresi (IP-adres -kompyuterning Internet tarmog'idagi adresi) orqali kompyuterlar bir-birlari bilan bog'lanadi. (Bu jarayon haqida to'liqroq ma'lumot olish uchun "Help" faylining "Настройка удаленного доступа" bandiga qarang.)

IPBOARD elektron doskasining asosiy komponentalari qo'yidagilar.



53-rasm. Elektron doska asosiy komponentlari.

IPBOARD elektron doskasining dasturiy vositasini o'rnatish.

IPBOARD elektron doskasining dasturiy vositasini o'rnatishda kompyuter qurilmalariga va dasturiy vositasiga bo'lgan minimal talablar.

-*kompyuterning turi* : kompyuter –Pentium III, 800 MHz va yuqori takt chastotali protsessor,

-*operativ xotira*: 128 Mb va undan yuqori,

-qattiq diskda minimal 112 Mb bo'sh joy talab qilinadi,

-*o'rnatilgan operatsion tizimi*: Windows 7, Windows XP, Windows 8, Windows 10.

Agar bizning kompyuterimiz yuqoridagi talablarga javob bersa dasturiy vositani o'rnatishni boshlashinmiz mumkin.

O'rnatish jarayoni qo'yidagi tartibda amalga oshiriladi.

- IPBOARD doskasining dasturini kompyuterga o'rnatish uchun dasturiy vosita diskini DVD-ROM yoki CD-ROM qurilmasiga qo'yamiz.

Kompyuter diskni avtomatik tarzda o'qiydi va ekranga qo'yidagi 1-rasm chiqadi.




54-rasm. O'rnatishning bosh sahifasi.

➤ Dasturiy vositani o'rnatish uchun “*Instal IPBOARD Software*” tugmasini bosamiz. O'rnatish tilini tanlab va “*Next*” tugmasini bosamiz. (55-rasm).

55-rasm.

O'rnatish tilini tanlash.



➤ IPBOARD dasturini o'rnatish joyini ko'rsatib o'rnatishni boshlash uchun “*Next*” tugmasini bosamiz. (55-rasm)

55-rasm. Dastur o'rnatiladigan joyini ko'rsatish.

Huddi shu ketma-ketlik asosida USB portlar drayveri hamda doska drayverlari o'rnatiladi. Buning uchun "*Install IPBOARD driver*" va "*Install USB driver*" bandlarni ketma-ket tanlab o'rnatish kerak.

User Guide (foydalanuvchiga qo'llanma) bandida elektron doskadan foydalanish yo'riqnomasi keltirib o'tilgan.


Dasturiy vosita va doska drayverlari o'rnatilgandan so'ng elektron doskaning o'ng tomonidagi interaktiv boshqariluvchi funksional tugmachalari yordamida kompyuterni boshqarish, sahifalar bilan ishlash, ma'lumotlarni taxrirlash, va bosmaga chiqarish mumkin bo'ladi.

O'qituvchi IPBOARD elektron doskasidan foydalanib dars o'tishda bu funksional tugmachalardan foydalanadi. Bu tugmachalar dars davomida bevosita doskaning o'zida bir qancha amallar bajarishga imkon beradi.

Bu interaktiv boshqariluvchi tugmachalar va ularning asosiy vazifalari qo'yidagilar:



Ishchi sohani belgilash tugmachasi bizga elektron doskaning ishlatiladigan sohasini belgilash uchun ishlatiladi. Ishlatiladigan soha qanchalik aniq belgilansa markerning harakati ham shuncha aniq bo'ladi.56-Rasm.



Boshqarish rejimi tugmachasi kompyuterni boshqarishda uning qo'shimcha qurilmasi sichqoncha bajaradigan vazifalarni bajarishga imkon beradi. Buning uchun kompyuterni boshqarish rejimiga o'tish kerak bo'ladi.57-Rasm.



Komentariya rejimi.Yangi prezintatsiyalarni yaratishda komentariya rejimidan foydalanish yetarli hisoblanadi. Komentariya rejimi qo'shilganida ekrandagi ma'lumotlar ustida avtomatik ravishda taxrirlash ishlarini

olib borish mumkin bo'ladi. IPBOARD dasturida prezintatsiyani ishga tushirib foydalanuvchi kompyuterdagi ma'lumotlar ustida amallar bajarish uchun boshqaruv rejimiga o'tish talab etiladi. 58-Rasm.

IPBOARD dasturi panelida ilovalar uchun istalgan uskunalar ishga tushirilganida (qalam, marker) dastur avtomatik ravishda ekrandagi ma'lumotlar rasm tarzida prezintatsiyaning birinchi sahifasiga o'tadi.

Kompyuter ekranidagi ilovalar(izohlar).

IPBOARD dasturida elektron doska nafaqat elektron marker yordamida, balki sichqoncha yordamida namoyish qilinishi mumkin.

Oyna rejimi. Ushbu rejim tanlanganda doskada IPBOARD dasturiy




vositasining ish oynasi paydo bo'ladi. Bu ishchi oynada dars o'tishda maktab doskasi sifatida ishlash mumkin bo'ladi.59-




Rasm. Prizentatsiya yartish, yozuvlar bilan ishlash, tasvirlar bilan ishlash, yozilgan ma'lumotlarni o'chirish va saqlash, ularni tahrirlash, bosmaga chiqarish imkoniyati mavjud bo'ladi. Ishchi oynaning yana bir qulaylik tomoni matnlarni taxrirlash va qayta ishlashda turli xil rangli qalamlardan

foydalanish imkoniyatining mavjudligida. 59, 60 - Rasmlar.

Yangi sahifa yaratish tugmachasi doskada yangi sahifa yaratish uchun ishlatiladi. Bunda oldindagi sahifalar o'chib ketmaydi, balki yuqorida saqlanib turadi. Istalgan vaqtda yuqoridagi sahifalarga murojaat qilishimiz mumkin.



Yaratiladigar yangi sahifalar soni cheklanmagan ya'ni istalgancha yangi sahifalarni yaratishimiz mumkin. Bu ayniqsa katta-katta prizentatsiyalarni namoyish qilishda qo'l keladi. 61-Rasm.



Yuqoridagi sahifaga o'tish funksional tugmachasi bosilganda ishlatilayotgan sahifadan bitta yuqori sahifaga o'tiladi. Bu funksional tugmachadan prezintatsiyada namoish qilinayotgan sahifadan oldindgi sahifaga o'tish uchun ishlatiladi.62-Rasm.

Pastki sahifaga o'tish yoki keyingi sahifaga o'tish tugmasi bosilganda keyingi sahifaga o'tish hodisasi ro'y beradi. 63-Rasm.

Ushbu funksional tugmacha ham prezintatsiyalarda juda qo'l keladi.




Bu funksional tugmaning vazifasi odatdagi qalam bajargan vazivalarni bajaradi. 64-Rasm. Qalam yozuvlar, matnlar, rasmlar va gravik ob'ektlarni chizish imkonini beradi.



Ushbu boshqariladigan funksional tugmachaning odatdagi qalamdan farqi turli xil ranglar va qalinliklarda yozish imkoniyatining mavjudligida. 65-Rasm.



O'chirgich asbobi oynadagi keraksiz matn, tasvir va obyektlarni o'chirish uchun ishlatiladi. O'chirgich hajmini istalgan kattalikda o'zgartirish mumkin. 66-Rasm.



Qaytarib namoyish qilish tugmachasi sahifadagi prizentatsiyani qaytarib namoyish qilish vazifasini bajaradi. Bu tugmacha ishga tushirilganida sahifa slaydlari avtomatik tarzda namoish qilinadi. Bajarylga barcha ishlar va amallar

navbati bilan namoyish qilinadi. 67-Rasm.



Raqamli ma'lumotlarni qattiq tashuvchiga (odatda qog'ozga) chop etish qurilmasi. Printer boshqariladigan funksional tugmasi sahifadagi ma'lumotlarni printerdan chop etishga imkon beradi. Bunda kompyuterga printer chop etish qurilmasi ulangan bo'lishi kerak bo'ladi. 68-Rasm.

IPBOARD dasturiy vositasi doska bilan ishlashda bir qancha qulaylik tug'diruvchi funksiyalarni taqdim etadi.



Tez harakatlanib o'tuvchi panel. Harakatlanuvchi panel elektron marker orqali sahifaning o'ng va chap qisimlariga ko'chirib ishlatiladi. Bu oynadagi ma'lumotlarga halaqit bermaslik uchun kerak bo'ladi. 69, 70-Rasmlar. Ushbu harakatlanuvchi panel

dasturiy vosita ishga tushirilganidan keyin oynada paydo bo'ladi. Biz bu harakatlanuvchi panelni uskunalar paneli deb atashimiz mumkin. Panelda bir



qancha uskunalar mavjud va bu uskunalar panelga ixtiyoriy foydalanuvchi tomonidan qo'shilishi yoki olib tashlanishi mumkin. Buning uchun panelning menyusidan kerakli uskuna tanlanib sichqoncha tugmasini bosib, uni qo'yib yubormagan holda uskunalar paneliga qo'shish kerak. Panelning menyu bandida geometrik figuralar

chizish uchun, chizg'ich, sirkul kabi uskunalar ham mavjud. Bu esa elektron doska dars o'tish jarayonida qulay vosita ekanligiga yana bir misol bo'la oladi.

Uzoqlashgan foydalalanuvchilar bilan ishlash.

IPBOARD elektron doskasi masofadagi foydalanuvchilar bilan ishlash funksiyasini ham qo'llaydi. Bunda universal to'plam uskunolari masofadagi uzoqlashgan doska bilan ulanishga yordam beradi. Bu ayniqsa konferinsiyalar, masofaviy ta'lim jarayonida qo'l keladi. Masofadagi elektron doska bilan ishlaganda qisqa o'rnatish va sozlashlar amalga oshirilganidan keyin, multimedia vositalari o'rnatilganda foydalanuvchilarga audio va video signallar ham uzatiladi. 70-Rasm.



71-Rasm.

Ranglar interfeysi.

IPBOARD Software dasturi turli xil ranglar interfeysini qo'llaydi. Foydalanuvchilar doska bilan ishlaganda o'ziga qulay rangni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda foydalanuvchiga 3 xil turdagi ranglarni tanlash imkoniyati beriladi. 71-Rasm.




Ko'p foydalanuvchi interfeysi.

IPBOARD elektron doskasi bilan ishlaganda har bir foydalanuvchi uchun shaxsiy nom (login) va parol

yaratib foydalanish imkoniyati mavjud. Bunda foydalanuvchi o'zining foydalanuvchi qayd yozuvini yaratadi va barcha o'zgartirish va cheklovlar shu foydalanuvchi tomonidan boshqariladi. 72-Rasm.

Foydalanuvchi qayd yozuvini yozish uchun kompyuterning “*nyck*” menyusidan *Julong Edugational Sowftware* bo'limining *IPBOARD Software* bandidan *User Manager* ilovasini ishga tushirish kerak.



Sahifa mavzusi.

Agarda prezintatsiyamizning hamma sahifasiga kalontitul qo'yish talab qilinsa, IPBOARD dasturida «Тема страницы» sahifa mavzusi funksiyasi ishlatiladi.

Sahifa mavzusida turli obyektlar, rasmlar, yozuvlar va ilovalar ishlatilishi mumkin. Sahifa mavzusi har bir sahifa uchun alohida, yoki hamma sahifaga bir xil bo'lishi mumkin. 73-Rasm.



Boshqa formatlarga tez eksport qilish imkoniyati. 73-Rasm. IPBOARD dasturida yaratilgan ilovalarni boshqa dastur ilovalari uchun tezda eksport qilish imkoniyati mavjud:

- grafik obyektlar uchun (tiff, jpeg, gif,

bmp, png);

- Microsoft Office dasturlari uchun(doc, ppt);
- PDF da ;
- HTML da.

Bundan tashqari elektron doska dasturiy vositasi ishga tushurilganidan so'ng tez harakatlanib o'tuvchi paneldan oyna rejimi tanlanganda doska ishchi oynasi paydo bo'ladi.

Ekranning yo'qori qismida 10 ta menyulari mavjud bo'lib, bular quidagilar.



-File, Edit, View, Insert, Format, Draw, Tool, Network, Skin va Help menyulari. 73-Rasm.

Bu menyular Microsof Office dasturlari menyulari singari bir qancha amallarni bajarishga mo'ljallangan.

Menyular satrining pastki qismida uskunalar qatori joylashgan va u qo'yidagicha ko'rinishga ega. 74-Rasm.



Ushbu uskunalar qatoriga elementlar ma'lumotlarni saqlash, ko'chirish, nusxa olish, yangi sahifa yaratish, o'chirg'ich , qalam, matn kirirtish va boshqa bir qancha amallarni bajarishda vaqtni tejash maqsadida joylashtirilgan.

Bu uskunalar qatori elementlaridan tez harakatlanib o'tuvchi panelning oyna rejimiga o'tmasdan turib ham foydalanishning imkoni mavjud. Buning uchun elektron doskaning kompyuterni boshqarish rejimida paneldagi menyu bandidan elektron markerni bir marta bosib kerakli band tanlanadi va kerakli uskunadan foydalanish mumkin bo'ladi.

Qisqacha qilib shuni aytish mumkinki IPBOARD doskasi hamda uning dasturiy vositasi yordamida ta'lim jarayononi tashkil qilish samarali natijalarga olib keladi. Unung funksional tugmachalari hamda dasturiy ta'minotidagi uskunalar panellaridan foydalanib har qanday fanni samarali interfaol usulda tashkil qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda fan va texnikaning rivojlanishi pedagoglar oldiga qator yangi vazifalarni qo'ymoqda: axborot texnologiyalari ta'lim jarayoni qanday bo'lishi kerakligini, axborotlarni qanday taqdim etilishini, qanday hajmda va qanday ko'rinishda bo'lishini belgilab bermoqda.

Shuning uchun eng asosiy, hatto birinchi vazifa-ta'lim tizimidagi yondashuvlar, texnik vositalar, shuningdek, ta'lim texnologiyalari yangi metodlari

ta'lim jarayonini ta'minlovchi o'qituvchilar hamda texnik mutaxassislar uchun yaqin va tushunarli bo'lishini ta'minlash kerak⁸.

Takrorlash uchun savollar

1. Qandy zamonaviy o'quv-texnik vositalarni bilasiz va ularni sizning mutahassisligingida qo'llanilishining samarali tomonlarini sanab bering.
2. Eelektron doskaning uskunalari paneli va ulardagi uskunalarining nomini batafsil tavsiflang?
3. Multiproektor nima?
4. IDBoard doskada multiproektor, whiteboard-oq ekranvaprotsessor nima orqali bog'langan? IDBoard doskani o'rnatish uchun dasturiy ta'minot kerak, bu haqida batafsil bayon eting.

Nazorat savollari:

1. Qanday o'quv-texnik vositalarni bilasiz? Ularni sanab bering.
2. Videoproektorning ishlash prinsipi qanday?
3. Videoproektorning qanday tugmalari mujassam?
4. Multiproektor nima?
5. Videoglaz nima?
6. Planshet nima?
7. Noutbuk va netbuklar haqida bayon eting?
8. Sensorli elektron doska nima? Uning qanday funksional tugmalari bor?

Asosiy adabiyotlar

1. Evans V., Dooley J., Wright S. Information Technology. Express Publishing
2. Gromov YU.YU. Informatsionnye texnologii. Tambov 2015
3. Zaxarova I.G. Informatsionnye texnologii v obrazovanii. Moskva ACADEM'A 2003
4. David Watson and Helen Williams Computer Science//IGCSE is the registered trademark of Cambridge International Examinations. Buyuk

⁸ IDBoard elektron doskasining ishlatish yuriqnoma kitobchasi, USA,220 b.

Britaniya/Hodder Education. An Hachette UK Company London NW1 3BH 2014, 278p.

5. Stelle Cottrell, Neil Morris Study Skills Connected. Buyuk Britaniya /Palgrave Macmillan 2013, 183p.

6. Hartoyo. (2012). ICT in Language Learning.Semarang: PelitaInsani Printing and Publishing

7. R.R.Bokiyev, A.O. Matchanov, Informatika, “O’qituvchi”, Toshkent, 2010, 374 bet.

8. Usmonov A.I., Baxramov F.D. Kompyuter texnologiyalari asoslari. T., 2010

Internet manbalar:

1. <http://smartboard.com.ua/ru/main.htm> - SMART Board boshlovchilar uchun.

2. [SMART Board nachinayumim](#) –Interfaol texnolgiyalar.

3. <http://www.smartboard.ru/view.pl?mid=1125315109> –Smart namunali o’qituvchi konkursida o’qituvchilarning darslari ko’rsatilgan.

4. SMART interaktiv doska uchun bir necha uslubiy ko’rsatmalar - <http://edcommunity.ru/>

3-modul. Kompyuter lingafon sinflari: turlari va ularda ishlash usullari

Reja:

1.Kompyuter lingafon sinflari chet tilini o’rgatishning asosiy texnik vositasi sifatida.

2. Zamonaviy kompyuter lingafon sinflari turlari.

3. Kompyuter lingafon sinflarida qo’llaniladigan dasturiy vositalar.

4. Kompyuter lingafon sinflarida bajariladigan mashg’ulotlar turlari va ularni boshqarish usullari.

Tayanch so‘z va iboralar: kompyuter lingafon sinfi, iSpring Sute paketi dasturlari, audio va video yozuvchi va namoyish etuvchi dasturlar: Bandicam, Comtasiya studio, Snagit, Listining darslari uchun Sound Forge dasturi.

Asosiy matn:

Sankt-Peterburgdagi “Nord-LK” kompaniyasi turli rusumdagi lingafon kabinetlarni va ular uchun dasturiy ta’minotni, Nord-masterni yaratdi. Bu dasturiy ta’minot turli lingafon kabinetlari turlarida o‘z ishini ko‘rsatmoqda.



“Nord-LK” kompaniyasi turli rusumdagi lingafon sinflarini taqdim etadi. Eng avvalo bu ixtiyoriy rusumdagi multimediali sinflar: multimediali lingafon kabinetlar.


Ixtiyoriy darajadagi multimediali sinflarga: multimediali kabinetlar, lingafon raqamli kabinetlar, multimediali elementli lingafon kabinetlar kiradi.




Endi ularning har birining ishlash prinsipini ko'rib chiqamiz. Buning uchun multimedia elementli lingafon kabinetini ko'rib chiqamiz. U o'ziga hos o'qivchi joyidan va o'rganuvchilar joylaridan iborat. Ular jihozlangan.



O'rganuvchi talabalarga o'quv joylarida talafuzni eshitish uchun moslamalar o'rnatilgan.



O'qituvchining ish joyida videoproektor, o'qituvchining pulti, analogli audioproigrovatel kabi uskunalar joylashgan.



O'qituvchining ishchi joyi quyidagicha: O'qituvchining ishchi stolida proektor, kompyuter, mahsus lingafon qurilma hamda audio-video axborotni akslantirish vositalari interaktiv doska, proektor yoki ekran bilan ulanadi. Multimedia elementli lingafon kabinet Nord kompaniyasining lingafon kabinetlarining eng sodda ko'rinishlaridan biri. Uning yordamida dars jarayonida o'qituvchi talabalar bilan be'malol aloqada bo'lishi mumkin, suhbatlashishi va o'quvchisini eshitishi hamda teskari aloqani o'rnatish mumkindir. Talaba ham o'qituvchisi bilan ulanishi, suhbatlashishi mumkin bo'ladi. Talabaning ishchi joyida:



Integrallashtirilgan boshqaruv pulti orqali talabalar sozlarning talafuzini o'rganishlari mumkin, buning uchun ularga mahsus oynali kabinalar yasalgan bo'lib, ular u erda yozish va eshitish talaffuz qilish ko'nikmalarini o'rganishadi. O'qituvchi bilan bog'lanishlari mumkin bo'ladi.

Boshqaruv pulti orqali talablar kollektiv yozma ish yozishlari hamda listening darslarini o'tishlari va bu orqali ko'nikmalarni hosil qilishlari mumkin. Lingafon kabinetni boshqarish o'qituvchi kompyuteridan amalga oshirildi. Kompyuterda o'qituvchi sinf shemasini ko'radi, undagi kompyuterlarning shematik joylashuvi haqiqatda joylashgani bilan bir hil. O'ng tomonda materiallarni tarqatish va dialog bo'limlari mavjud.




Ekranning o'ng tomonida topshiriqlar hamda materiallar va dialoglar bo'limlari joylashgan. Pastda esa nazorat knopkalari joylashgan. Dasturning nazorati, mikrafon, konfernsiya, tashqi dinamiklar, jurnal va boshqa tugmalar joylashgan. Materiallar bo'limida o'qituvchi material sifatida videoni qo'yishi mumkin, bunda u materialni to'htatib turishi, oldinga yoki orqaga aylantirishi va talabalar diqqatini jalb qilib turishi mumkin. Talabalar uchun uchta turli hil topshiriqlarni yuklash imkoniyati mavjud. O'qituvchi kompyuteridan materialni yuklash, boshqa manbadan yuklash, internetdan yoki Windows Mediya player orqali ham materialni translyatsiya qilish mumkin. O'qituvchi talabani nazorat

qilib turishi va uning ishini to'g'irlab ketishi mumkin. O'qituvchi ixtiyotiy talabani yozib olishi mumkin. Uning uchun kontrol bo'limida pastdagi Zapis piktogrammasi bosiladi.


O'qituvchi bu lingafon kabinetda ishlaganda o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib o'qitishi mumkin. Ular ikki ranga ajraladi, ko'k rangdagi talabalar topshiriqni o'qituvchi kompyuteridan qabul qilib bajarashadi, ikkinchilari esa tashqi manbadagi topshiriqni bajaradilar.




Windows Media player orqali videolarni translyatsiya qilish mumkin. Bundan tashqari ingafon kabinetda internetga kirib ham ishlash mumkin. Brauzerga kirib kerakli internet resursni tanlab, o'qituvchi eshitish uchun kerakli video yoki audio materialni ishga tushiradi. Bunda o'qituvchi har bir talabaning ishini nazorat qilib turishi mumkin. Buning uchun uning piktogrammasiga bosish kifoya.




Internet orqali brauzerdan kerakli saytni tanlab, videoni yuklab hamma talabalarga quyib berish mumkin. Videomateriallarni barcha talaba yuklab berish imkoniyati mavjud. Videofaylni o'qituvchi kompyuteridan ham yuklash mumkin. Sinfni ikkiga bo'lib ham o'qitish mumkin. Konferensiya funksiyasiga bosib, o'qituvchi naushnigini olmay, boshqa topshiriqqa o'tish mumkin. O'qituvchi biror o'quvchini belgilab, keyin Zapis tugmasini bosib, uni yozib olishi mumkin.



Internet orqali turli video larni kabinetdagi talabalarga yuborish mumkin. Kundalik siyosat yangiliklarini, habarlarni yuklab berish mumkin.



Menyuda ikkita bo'lim: Kontrol, Zadaniya bo'limi bor. Zadaniya bo'limi esa: Materiali va Dialogi bo'limlaridan iborat. Dialogi bo'limida esa talabalarni ikkilikda yoki uchlikda juft bo'lib talabalarni ishlashlarini ta'minlash mumkin. Bu erda berilganlar bazasi bo'lib, har bir talabani o'qituvchi kuzatishi va materiallarni unga yuborishi mumkin bo'ladi. Dialogi bo'limida ikki il juftlikda va bitta uchlikda ishlash imkoni mavjud.



Bu lingafon kabinet o'rganishga sodda va qulay kabinetlardan biridir. Bu Sem(CƏM) lingafon kabine ti haqidagi material edi. Ikkinchi lingafon kabinet bu:raqamli lingafon kabine ti.



Raqamli lingafon kabinetlarda Nord master raqamli dasturiy ta'mino qo'llaniladi. Talabalar uchun ham qulay joylar ta'minlangan.

O'qituvchining ishchi joyi ishchi stolida Kompyuter, klaviatura, quloqqa taqiluvhi uskuna va o'quvchilar stollarini ulashni amalga oshiruvchi lingafon kommutator bilan ta'minlangan.



O'qituvchining ishchi joyida turadigan personal kompyuter hamda hamma talabalar ishchi stollarini ulagan lingafon kommutator turadi.

Talabalarning raqamli pultlari lingafon kommutatorga ulangan.




Individual raqamli pult va barcha ulanishlar o'quvchi stolida mahkam fiksirlangan. Talabalarning kompyuterlarini ko'rsatuvchi berilganlar ombori bor. Uning yordamida talabalar familiya va ismini ko'rish mumkin bo'ladi.




O'qituvchi lingafon kabinetda test o'tkazishi va uning berilganlarini, natijani yozib olishi va saqlashi mumkin. Jurnalda uni qayd etishi hamda jurnalda


davomadni ham fiksirlashi imkoni bor. Talabalarni guruhlarga bo'lib o'qitish imkoni bor.



Talabalarni juftlikda yoki uchlikda yoki to'rtlikda, konfereensiya orqali o'qitish mumkin. Konferensiya orqali boshqa topshiriqqa o'tish mumkin.



Mahsus Nord Master dasturiy ta'minotida Deystviye Test Svoystva Spravka bo'limlari mavjud. Talaba video orqali mustaqil o'zi o'qishi mumkin. O'qituvchi talabaga bilintirmay uni yozib olishi, eshitib ko'rish imkoni bor.



O'qituvchi aniq kompyuterda o'tirgan har bir talabani ko'ra oladi. Testlarni yaratish muhitiga ega bo'lgan bu lingafon kabinet savollar sonini tanlash imkonini beradi. Hat rejimi script yaratish imkoniyatlari bor.



Ixtiyoriy rejimda o'qituvchi o'quvchini eshiib turishi, ekranni uchirishi boshqa talabalarga uning kompyuterini ko'rsatishi mumkin, materiallarni tekshirish uchun yig'adi.



Bu lingafon kabinet bir joydan ikkinchi joyga kuchirish uchun ham qulay.



Raqamli lingafon kabinetda manba turiga qarab video quyib berish mumkin, dialog rejimida juftlikda yoki to'rtida bo'lib ishlash mumkin, o'quvchini yozib olish mumkin, to'liq birguruhni yozib olish imkoniyatlari mavjud. Nord Master dasturiy ta'minot o'qituvchiga talabalrni ko'rish imkonini beradi, yani qaysi kompyuterda qaysi talaba o'ltirganini bilib bradi. Nord Master dasturiy ta'noti test sohasiga ega, test natijalari mahsus joyda yani integrallashgan jurnalda saqlanadi. Dars davomida o'qituvchi keyingi nazorat ishlarni bajarishga o'quvchiga

murojaaaat qilishi mumkin. Talabalar uchun pastiga kitob quyuvchi sohali organik mebel quyilgan/. NardMaster dasturiy ta'minot o'qituvchiga ekranda aniq kompyuter atrofida ultirgan talabani ko'rish imkonini beradi. O'qituvchi o'zo'quvchilariga bir birlari bilan muloqot qilishlariga, juftlikda ishlashlariga imkon bera oladi. O'qituvchi talabalarga turli rejimlarda testlashtirishni o'tkazishi mumkin. Jurnalda o'tkazilgan test natijalari saqlanadi, shuningdek, talabalarning davomati avtomatik tarzda belgilanadi.



Keyingi lingafon kabinetlarining turi- kompyuter lingafon Kabinet hisoblanadi. Unda bir sinf kompyuterlari va o'qituvchining hamda har bir o'quvchining ishchi stoli bor.

Kompyuter lingafon sinfida eshitish va ko'rishga oid video-ma'ruzalar, video-filmlar, audiolar, Listining uchun turli xil eshitishga oid vositalar bo'ladi. Kompyuter lingafon sinfida eshitishga mo'ljallangan ingliz tilidagi xikoyalar, tarixiy voqealar aks ettiruvchi audio tovushli lingafon eshittirishlar mujassam. Kompyuter lingafon sinfidagi kompyuterlar Comtasiya studio, Bandicam, Snagit, iSpring Sute paketi dasturlariga, Articulate, iSpring Free dasturlariga, Prompt, Socrat, Magic Goody, Google Translate, Lingvo, bir tildan ikkinchi tilga

uguruvchi lug'g'atlarga? Mobil lug'gatlarni olish imkoniyatlariga ega bo'lishi zarur. Undan tashqari dasturiy ta'minotida ofis dasturlari. Internet, masofaviy ta'limga mo'ljallangan o'quv platformalar, o'quv kurslarini yaratishga oid dasturlar, on-layn taqdimotlar yaratish uchun dasturlar, dasturiy vositalar bo'lishi zarur. Masofaviy kompyuter lingafon kabinetlarida esa shularga qushimcha Moodle o'quv platformasiga o'rnatilgan o'quv kurs bo'lishi kerak. Bunday sinflarda on-layn tarjimon dasturlar, boshqa tarjima qilish vositalari, lug'atlar, on-layn lug'g'atlar va boshqa vositalar tarjima qilishga xizmat qiladi. Lingafon sinflarida listinig-eshtitishga oid mashg'ulotlar, xikoyalarni eshitishga, so'zlarni o'qilishiga va ecse, insho yozishga mashg'ulotlar o'tkaziladi. Tarjima dasturlari yordamida tarjima qilishga mashg'ulotlar o'tkazish mumkin. On-layn tarzda matnlarni tarjima qilish, lug'atlar orqali, on-layn va mobil telefonlardagi, kompyuterlardagi tarjimon dasturlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Audio-xikoyalarni eshitib, bayon yozish mashqlarini tashkil qilinadi. Video-ma'ruzalar yordamida mavzularni o'rganish, til grammatikasiga o'qitish mumkin. Bu asosda kompyuter orqali testlar o'tkaziladi. Talabalar bilimini test dasturlari orqali nazorat qilish mumkin. Lingafon kabinetlarida o'qituvchin kompyuterida juftlikda ishlashga oid audio mashg'ulotlar Sound Forge dasturida tayyorlangan o'ladi. Sound Forge-bu audio yaratadigan dastur. Videolarni ham dars jarayonida lingafon kabinetida o'qituvchi talabalar kompyuterlariga jo'natishi va ular asosida bilimlarni nazorat qilishi mumkin. Talaba video materiallarni o'rganib, keyin o'qituvchi tomonida jo'natilgan testni echadi yki bu material asosida esse yozadi. Videolarni Comtasiya studio, Bandicam, Snagit dasturlari yordamida amalga oshiriladi. Zamonaviy lingafon sinlarida audio va video ma'ruzalar yordamida juftlikdagi va uchlikdagi mashg'ulotlarni tashkil etish mumkin. Undan tashqari, Sound Forge dasturida yaratilgan audiolar orqali listening darslarini tashkil etish ham maqsadga muvofiq. Turli til o'rgatuvchikompyuter dasturlari, on-layn lug'gatlarni qo'llab unumli trjimalarni amalga oshirish mumkin. Matnlarni tarjima qilishda Google Translate yordam beradi. Prompt, Lingvo dasturlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

Nazorat Savollari:

1. Kompyuter lingafon sinfi nima? Unda qanday o'quv texnik vositalar mavjud?
2. Lingafon kabinteda qanday mashg'ulotlar o'tish mumkin?
3. Qanday lingafon sinflar bo'ladi, ularda ingliz tilini o'rganish uchun qanday dasturlar bor va imkoniyatlar yaratilgan?
4. Lingafon sinfda masofaviy ingliz tilini o'rganish uchun qanday saytlar bor? Masofaviy o'qish nima?

Tayanch so'z va iboralar: iSpring dasturi, iSpring Free dasturi, SCORM, Tin Can, DialogTrainer, tarmoqlangan on-layn dialogli elektron kurslar, on-layn prezentatsiyalar, elektron darslik, vido-ma'ruza, video-ma'ruza ratish.

Asosiy adabiyotlar

1. Evans V., Dooley J., Wright S. Information Technology. Express Publishing
2. Gromov YU.YU. Informatsionnye texnologii. Tambov 2015
3. Zaxarova I.G. Informatsionnye texnologii v obrazovanii. Moskva ACADEM'A 2003
4. David Watson and Helen Williams Computer Science//IGCSE is the registered trademark of Cambridge International Examinations. Buyuk Britaniya /Hodder Education. An Hachette UK Company London NW1 3BH 2014, 278p.
5. Stelle Cottrell, Neil Morris Study Skills Connected. Buyuk Britaniya/ Palgrave Macmillan 2013, 183p.
6. Hartoyo.(2012). ICT in Language Learning.Semarang: PelitaInsani Printing and Publishing
7. R.R.Bokiyev, A.O. Matchanov, Informatika, "O'qituvchi", Toshkent, 2010, 374 bet.
8. Usmonov A.I., Baxramov F.D. Kompyuter texnologiyalari asoslari. T., 2010

Internet manbalar:

1. www.google.ru
2. wikipediya.com
3. www.ziynet.uz

4-modul. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan dasturiy vositalar

Reja:

1. Ta'limda qo'llaniladigan elektron o'quv vositalari turlari va tavsifi.
2. iSpring dasturi va uning imkoniyatlari.
3. iSpring Free dasturi.
4. SCORM va TinCan tizimlari haqida tushuncha. iSpring Suite asbob uskunalari orqali elektron darslik va videoma'ruzalar yaratish.
5. QuizMaker orqali elektron nazorat testlari, so'rovnomalar yaratish.
iSpring
6. DialogTrainer – tarmoqlangan dialogli elektron kurslarni va onlayn-prezentatsiyalarni yaratish.
7. Elektron o'quv vositalarini yaratish uchun dasturiy vositalar.
8. Elektron darsliklar yaratish dasturiy vositalari.
9. CoursLab dasturlari va uning imkoniyatlari.
10. Test yaratish va o'tqazish dasturlari: Mytest, EasyQuizzy.

Asosiy matn

iSpring Suite paketi dasturlari bo'lmish iSpring Kinetics, iSpring PRO, iSpring Quiz Maker, iSpring Suite dasturlari kiradi. Ta'lim resurslari qog'oz korinishida va elektron bo'ladi: kitoblar, darsliklar, qo'llanmalar va boshqalar. Elektron ta'lim resurslariga elektron kitoblar, taqdimotlar, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar, virtual modellar, testlar kiradi. Video-darsni ko'rib chiqqan talaba darsni to'liq qaytarishi mumkin, biror sabab bilan darsga kelmagan talabaga ham bu darsni o'zlashtirish zarur. Video-darslarni yaratish uchun kerakli kompyuter

dasturlarini o'rganish, shuning uchun ham dolzarb masalalardan hisoblanadi, chunki bugungi kunda multimediali o'qitish ham rivojlanishi zarur. Internetga rus tilida biror mavzuni qidiruvga bersangiz, yonida video-darslari ham chiqadi, lekin o'zbek tilida biror mavzuni qidirsangiz, mavzular, ular qatorida shu mavzuni yoki dasturni zo'r o'rgatuvchi videolarni topib bo'lmaydi, shu muammoni bartaraf qilish uchun biz video-materiallarni tayyorlash uchun nima qilish kerak, qanday dasturlarni o'rganish lozim va qanday o'rganmoq kerak degan savollarga javob berishni o'zimizga maqsad qilib quydik. Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, biz aniqlagan muammo quyidagicha ifodalanadi. Internet manbalarni tahlil qilib, rus tilida qidiruvga biror mavzuni bersangiz, uning oldida bu mavzuga oid qator materiallar va ularga oid video-darslarni ko'rish mumkin. Lekin o'zbekcha materiallarni qidirsangiz ziyonet.uz saytidan kerakli materiallar topiladi, lekin mavzuga doir video-darslar yo'q. Bo'lsada juda kam topiladi. O'zbek tilida yaratilgan fanlarga oid video-darslar va video-ta'lim resurslari yo'q. Bu muammoni yechish uchun quyidagi vazifani qo'yamiz:

Aniq fanlarga, horijiy tilni o'rganishga oid milliy saytlarni, ta'lim resurslarini, video-darslarni va videoli ta'lim resurslarini yaratish uslubiyotini ishlab chiqish zarur. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

Video-darslarni yaratish uchun tasvirlarni qamrab oluvchi va videolarni, video-ta'lim resurslarini yaratuvchi kompyuter dasturlari va dasturlar paketlarini ajratib olish.

Videolarni kompyuter dasturlarida yaratishni o'rganish va o'rgatish uslubini ishlab chiqish.

Kompyuter dasturlarining ishlash prinsipi, videoni olish, yozish, tasvirni qamrab olish jarayonlarini o'rganish va amaliy bajarib chiqish.

Kompyuter dasturlarida ishlash jarayonlarini uslubiy jihatdan bosqichma-bosqich yozib chiqish.

Boshqa ta'lim resurslarini (misol uchun, virtual laboratoriyalarni) yaratuvchi dasturlarda ishlashni o'rganish. Dasturlarning asosiy menyusi, ishlash jarayoni

bilan tanishish va ta'lim resurslarini yaratishni o'rganish va ta'lim resursini yaratish uslubini ishlab chiqish.

Mavzuga oid ma'ruza, amaliy topshiriqlar ishlanmasi, mustaqil ishlar, pedagogic texnologiyalar va boshqa materiallarni tayyorlash.

Paketni manzili bo'yicha etkazish ma'suliyatini IP–bayonnomasi oladi. Elektron paketlarni manziliga etkazish jarayoni oddiy pochta etkazish jarayoniga o'xshab ketadi. Avval paket provayder uzelliga kelib tushadi (pochta bo'limiga). U erda maxsus dasturlar bo'lib, ular marshrutlashtirish jadvalaridan foydalanib keyingi marshrutni tanlab oladilar. Bunda axborotning turli xil paketlari o'z manziliga Internet ning har xil uzellari va marshrutlari bilan etadi. SHuning uchun ma'lumot taqdiri ma'lum darajada tarmoqning ayrim qismlaridagi buzilishlarga bog'liq emas. Zaruriyat tug'ilganda esa paket aylanma yo'llar orqali manziliga etkazilishi mumkin. Nixoyat, TSR – adresat moduli kelib tushgan paketlarni yig'ib, xizmat ma'lumotlaridan foydalangan xolda ularni dastlabki xolatga birlashtiradi. YUqorida aytib o'tilgan jarayonlar elektron tezlik (300000 km /c) bilan sodir bo'ladi. Biroq ma'lumotlarni manzilga etkazishi bir necha sekunddan bir nechtagacha cho'zilishi mumkin. Sababi shundaki, kompyuterlarning bir biri bilan almashinuvchi ma'lumot uzunligi bir necha yuz baytdan bir necha


megabaytgacha o'zgaradi. Bir paketning uzunligi odatda 1500 baytdan oshmaydi. Bir vaqtning o'zida aloqa kanallari orqali bir biri bilan navbatma – navbat almashib 100 millionlab paket harakat qiladi. Ma'lumotlarni uzatish vaqti esa hamma foydalanuvchilar o'rtasida teng taqsimlanadi. Bir vaqtning o'zida qanchalik ko'p foydalanuvchi tarmoqda ishlasa, ma'lumotlar shunchalik sekin o'z manziliga etkaziladi.

Internet ning asosiy xizmat turlari.

Bu erda biz tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi asosiy xizmat turlariga qisqacha tavsif berib o'tamiz. Keyinchalik tarmoqning eng asosiy xizmat turi bo'lmish xalqaro axborot tarmog'i (WWW) haqida to'xtalib o'tamiz [1].



Telnet. Bu termin bilan mijozning olisdagi server – kompyuteri bilan aloqasini ta'minlovchi bayonnoma va dasturlar ataladi. Aloqa o'rnatilgandan so'ng, olisdagi kompyuterning operatsion sistemasi muhitiga tushadi va u erda bemalol uning dasturi bilan xuddi o'zining - dasturi bilan ishlaganday ishlayveradi [2].



FTP. (File Transfer Protokol – fayllarni uzatish bayonnomasi). Olisdagi

kompyuterlarning fayllari va dasturlari bilan ishlashni ta'minlovchi dastur va bayonnomalar shu termin bilan ataladi. FTP vositalari serverning fayllari va kataloglarini ko'rib chiqishga hamda bir katalogdan boshqa katalogga o'tishga, nusxa olish va fayllarning Internet Explorer muhitida ishlashini ko'rib chiqamiz.

Gopher. Bu so'z inglizcha so'z bo'lib "kovlamoq" degan ma'noni bildiradi. Gopher – bu FTP ga nisbatan taraqqiy etgan qidirish va axborotlarni chiqarib olish vositalari bilan ta'minlovchi bayonnoma va dasturlari kiradi. Gopher bayonnomalari zamonaviy navigator – dasturlarida qo'llaniladi.

Archie. Internet uzellarida FTP – server tarkibi to'g'risidagi qidirilgan axborotlarni yig'uvchi va saqlovchi maxsus serverlar shunday ataladi. Agar o'zimiz biladigan faylni qidirayotgan bo'lsak u holda mijoz Archie ni ishga tushiramiz va u bizga FTP serverdagi mos adresni ko'rsatadi.

WAIS Wide Area Information Servers – bu tarmoqlardagi ma'lumotlar bazasi va kutubxonalarda axborot qidiruvini amalga oshiruvchi taqsimlangan axborot tizimidir. Xususan, WAIS Internet dagi tuzilishiga keltirilmagan hujjatlarni indekslashtirish va ularda qidiruvchi tashkil etish qo'llaniladi.

E - mail. Bu elektron pochtaning inglizcha belgilanishi bo'lib, u orqali - hamma qit'alarda yashovchi insonlar bir-biri bilan elektron (ma'lumotlar) xabarlar va fayllar bilan almashishadi.

Usenet. Usenet tizimi – telekonferensiyalar, yangiliklar guruhi. Elektron pochtdan farqli ravishda, Usenet mijoz xabarlarini individual adresat bo'yicha emas, balki abonentlar guruhiga (telekonferensiyalarga) yuboradi. SHu konferensiya ishtirokchilari biror bir savolni hal qilishda teng huquqqa ega. Har bir konferensiya o'z adresiga ega va biror bir mavzuga tegishli (fanga, madaniyatga, sportga va boshqalar) bo'ladi. SHu bilan birga muhokama qilinadigan savollar turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 10000 dan ortiq telekonferensiyalar Internetda mavjud. Windows 95 boshqaruvi ostidagi telekonferensiyalar bilan ishlash uchun Internet Explorer 6.0 navigatori tarkibiy qismiga kiruvchi Internet News qo'shimchasini ishlatish mumkin.

IRC – Buni telekonferensiyalarning turlaridan biri deb hisoblasa bo‘ladi. (Internet Relay Chat). IRC–server va IRC – mijoz yordamida klaviatura orqali jummalarni terib, foydalanuvchilar bir- birlari bilan “virtual” muloqat olib borishadi.

Internet - telefoniya. Hozirgi paytda tarmoqning yangi turi - Internet – telefoniya tezda rivojlanib bormoqda. Bunda foydalanuvchilar Internet tarmog‘i orqali telefonlashishadilar.

WWW- Xalkaro axborot tarmog‘i.

World Wide Web – bu Internet dagi gipermatnli axborot – qidiruv tizimi. WWW ma’lumotlar bloki (saxifa) lari WWW – server deb ataluvchi kompyuterlarida joylashgan bo‘lib, ular biror- bir tashkilotga yoki kishilarga tegishli bo‘lishi mumkin. WWW hujjatlariga o‘rgatilgan gipermatnli jo‘natmalar yordamida foydalanuvchi bir hujjatdan ikkinchi hujjatga o‘tishi mumkin.

WWW asosida, gipermatnli xabarlarni uzatuvchi bayonnoma – HTTP (Hypertext Transfer Protocol) yotadi, sahifalar esa hujjatlarni tasvirlovchi maxsus gipermatnli til – HTML (Hyper Text Maker Language)yordamida shakllanadi.

WWW bilan ishlash uchun, inglizcha browsers („browse” fe’lidan – olingan va ko‘rib chiqmoq degan ma’noni anglatadi), ruscha – brauzer, navigator deb ataluvchi maxsus provayderlar ishlatiladi. Endi biz keyingi gaplarda faqat “navigator” deb uni ataymiz. WWW va uning dastur ta’minoti bu tarmoqning qudratli instrumentlari hisoblanadi.

Ular foydalanuvchilarga yuqorida sanab o‘tilgan barcha resurslarga kirish imkonini beradi.

Brouzerlar

Brouzer – bu Internet resurslari va ma’lumotlaridan foydalanishni ta’minlovchi dastur bo‘lib, uning quyidagi turlari mavjud:



Internet Explorer Opera Mozilla FireFox Google Chrome

Internet Explorer - 1990 yillardan boshlab platformaga o'rnatilib kelgan standart brauzer hisoblanadi. Uning asoschilaridan biri axborot kommunikatsiya sohasida eng muvaffaqiyatli biznes boshlagan multimiliarder Bill Geytsdir. Mashhur moviy rangdagi "e" harfi bilan ifodalanuvchi brauzer aynan uning harakatlari natijasi bo'lib, 1998 yildan 2009 yilgacha Maykrosoft kompaniyasi "Internet Explorer" ni har bir kompyuterga o'rnatilgan Windows operatsion tizimiga Internetni aks ettiruvchi ramz sifatida kirita boshladi. Brauzerning turlari ko'paygani sari bunday monopoliyaga chek qo'yildi.


Mozilla FireFox – ingliz tilidan tarjimasi "olovrang tulki" ma'nosini bildiruvchi mazkur brauzer, Internet Explorerning jiddiy raqqibi. Brauzer ancha tez ishlaydi, imkoniyatlari ko'proq, hozirgi kunda nisbatan xavfsiz brauzerlardan biridir

Opera- dunyo bo'yicha birinchi o'rindagi brauzerdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra Internetdan foydalanuvchilarning 15-20% Opera hizmatidan foydalanadi, uning uyali aloqa telefonlari va cho'ntak kompyuteri uchun maxsus bo'limlari mavjudligi bois tobora ommalashmoqda. 2009 yilda Operaning 10-turi ishlab chiqildi.

Google Chrome – 2008 paydo bo'lgan brauzer to'rtinchi brauzer bo'ldi. U faoliyat boshlashi bilanoq, "yil dasturi" nomiga sazovor bo'ldi. U o'zining oddiyligi va ishonchli ekani bilan boshqalardan farq qiladi.

Internet va Windows

YUqorida sanab o'tilgan so'zlardan ko'rinib turibdiki, Internet va Windows bir- biridan mustaqil ravishda rivojlanib kelgan. Undan tashqari, hozirgi kunlargacha tarmoqdagi operatsion sistema ham, asosiy server ham Windows emas, balki Unix bo'lib kelgan. Biroq WWW ning paydo bo'lishi bilan, Java texnologiyasi va kommunikatsiyalarning mijozli dastur vositalari Windows ilovalaridan tez to'plana boshlandi. Masalan, navigator FTP-serveri bilan ishlashni osonlashtiradi: sichqoncha tugmasini bosib, bir katalogdan ikkinchi katalogga o'tishimiz mumkin, fayllarni ko'rib chiqish, shaxsiy kompyuterga ma'lumotlarni yozib olish mumkin. SHuning uchun ham Windows va uning kommunikatsion ilovalarini (birinchi navbatda Internet Explorer va Netscape Navigator) Internetning universal "mijoz" deb hisoblash mumkin [5].



Bunda, ilovalarning qayta ishlash ob'ekti bo'lib, Internet resurslari hisoblanadi: Web sahifalari, FTP kataloglari va fayllari, elektron pochta xabarlari va hokazo.

Internet texnologiyalari tez rivojlanmoqda. 1995 yili Sun Nikrosystem kompaniyasi tomonidan tarmoq simvollarini yaratishga mo'ljallangan, maxsus interpretatsiyalanuvchi Java tilida yozilgan katta bo'lmagan amaliy dasturlar appletlar (applets) yaratilgan.

Bunday dastur Web server sahifalarida saqlanadi va tarmoqning mijoz navigatori tomonidan chiqariladi. Javaning qo'llanilishi tarmoqning multimediya

imkoniyatlarini kengaytirdi, tarmoq sub'ektlariga shaxsiy ma'lumot formatlarini (xususan grafiklarni) yaratishga imkon beradi, hatto Internetdagi standartlar va chegaralarga qaramay, shaxsiy bayonnomaga ega bo'lishi mumkin. Java texnologiyalarini rivojlanishi shunga olib keladiki, tarmoq uzellarining resurslari hamma shaxsiy kompyuterlar uchun ochiq bo'ladi.

Tayanch so'zlar va iboralar:

Lokal va global kompyuter tarmoqlari, tarmoq, Internet, telekonferensiya, telekommunikatsiya, brauzerlar, adreslar, dizayn, veb-saifalar, bayonnomalar, modem.

“Masofaviy ta'lim xaqida umumiy tushunchalar, imkoniyatlari va afzallik tomonlari. Masofaviy ta'lim metod va texnologiyalari”

Masofaviy o'qitish nima? Masofaviy o'qitish an'anaviy o'qitishdan qanday farq qiladi? Masofaviy o'qitishga olimlar tomonidan berilgan bir nechta ta'riflarni ko'rib chiqsak.

Masofaviy o'qitish – o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, usul, shakl, o'qitish vositalari va hokazo), Internet-texnologiyasining maxsus vositalari va boshqalar bilan amalga oshiriladigan va interfaollikni ko'zda tutgan o'qituvchi va talabalarning masofadan turib o'zaro aloqa qilishidir [10].



Demak, masofaviy o'qitishda darsni tushunmaganlarga o'qituvchi alohida tushuntirib o'tirmaydi. Talaba ixtiyoriy vaqtda elektron pochta yoki on-line tartibida o'qituvchi bilan bog'lanishi va unga ixtiyoriy mavzuga oid savol berishi, ixtiyoriy materialni tushuntirib berishni so'rashi mumkin bo'ladi. Masofaviy o'qiyotganda baholash mezonlari ancha haqqoniy bo'ladi. Chunki, o'qituvchining talabaga nisbatan shaxsiy simpatiyasi yoki antipatiyasi paydo bo'lmaydi. Shuningdek, masofaviy o'qitish an'anaviy o'qitishga qaraganda ancha arzonroqdir. “Masofaviy” talabalar o'quv xonalarini egallamaydilar, partalarga

matematik formulalarni o'yib yozmaydilar, kompyuterning sinqonchasi joyida turadi va shu bilan birqatorda, ular ko'p vaqt mustaqil ishlaydilar.


Jahon tajribasi masofaviy o'qitishning bunday uslubiyotida talaba va o'qituvchilarning yakkama-yakka aloqasi boshqa o'qitish shakllariga nisbatan ancha ko'proq va samaraliroq bo'lishini ko'rsatyapti. Misol uchun IBM kompaniyasi menejerlar tayyorlash bo'yicha olti xaftalik kurslarniquyidagi nisbatda tashkil etishmoqda: 75% masofaviy, 25 % an'anaviy tarzda. Tashkil etilgan kurs \$24 million pul mablag'ini tejadi, bir kunlik o'qitish harajati uch martaga kamayganligini - \$ 400 dan \$135 ga tushganini, shu bilan birga o'quv materiallar 5 martaga ko'payganligini e'tirof etish kerak [37].

Nima uchun respublikamizda MO' shaklidan foydalanish sekin rivojlanmoqda? Bu quyidagi oltita: psixologik (ta'lim muassasasi rahbariyati va o'qituvchilarning inertligi – eng asosiy muammodan); gnoseologik (MO' yoki e-o'qitish ta'limni, o'rgatishni sifat jihatidan yaxshilashi yoki o'qitish “ko'rsatkichlarini” sanoq sifatidan ko'paytirish hech kim tomonidan isbotlamaganligi); uslubiy (turli ta'lim texnologiyalarida MO'ni qo'llash uslubiyotining yo'qligi); ishlab chiqarish (o'qituvchilarning asosiy qismi o'qitilmagan, e-materialni, kursni yaratishni bilmasligi); texnik (texnik baza va internet tezligining kuchsizligi, dasturiy vositalarning mavjud emasligi); huquqiy (me'yoriy, qonuniy, huquqiy hujjatlar bazasining etarli emasligi) kabi asosiy sabablariga ega.

Hozirgi paytda masofaviy o'qitishda qo'yidagi *asosiy metodlar* keng qo'llanilmoqda:

o'qituvchi va boshqa talabalar bilan minimal ishtirokida («Men-o'zim o'qiyman - o'zini-o'zi o'qitish») ta'lim ashyolari vositalari bilan o'quvchini ta'siri orqali o'qitish metodlari;

bitta o'quvchini bitta o'qituvchi yoki bitta o'quvchini boshqa o'quvchi bilan («birga-bir» o'qitish) o'zaro munosabatiga (telefondan, ovozli pochtdan, elektron




pochtadan, ikki tomonlama chatdan foydalanish) xos bo'lgan yakalashtirilgan o'qitish metodlari;

asosida o'qituvchi yoki ekspert tomonidan talabalarga o'quv materialni taqdim etish (audio yoki videokassetalarga yozilgan, radio yoki televideniya o'qiladigan ma'ruzalarni qo'llash), ularni elektron ma'ruzalarga (maqolalar yoki ulardan sitatlar yig'ish, o'tkaziladigan talabalarining munozaralariga tayyorlanadigan o'quv materiallar bilan), elektron simpoziumlar bilan to'ldirish metodlari;

o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari orasida (nafaqat o'quvchi va o'qituvchi orasida, balki talabalar o'zlarini orasidagi o'zaro interfaol ta'sir) o'zaro faol ta'sir («ko'pchilik ko'pchilikni» o'qitish) xarakteriga ega bo'lgan metodlar [2,59].


Figure 2.1 Learning interactions



O'quv jamoaviy munozara va anjumanlar o'tkazish, hamkorlikdagi loyihalarni bajarishlar bilan bog'liq, audio- audiografik va video anjumanlar masofaviy o'qitishda bunday metodlarni faol rivojlanishiga imkoniyat beradi (2.1-rasm) [3, 24-25].

Masofaviy o'qitish vositalari sifatida:qog'ozli va tarmoqli o'quv nashrlar; kompyuterli o'qitish dasturlari, audio va video o'quv-axborotli materiallar; masofaviy laboratoriya amaliyotlari, trenajyorlar, ma'lumotlar va bilimlar omborlari; ekspert o'qitish tizimlari asosida, geoaxborot tizimlari asosida, virtual haqiqiylik asosida va shaxsiy kompyuterlar o'qitish vositalari bo'lib hizmat qilishi mumkin. Masofaviy o'qitishda quyidagi o'qitish vositalari foydalaniladi (2.2-rasm, ularning tipologiyasining bir varianti): 1) kitoblar (qog'oz va elektron

Figure 6.2 The networked teacher (from Courous, 2006)



shaklda); 2) tarmoqli o'quv materiallar; 3) kompyuterli o'qitish tizimlari; 4) audio o'quv-axborot materiallar; 5) video o'quv-axborot materiallar; 6) masofaviy laboratoriya amaliyotlari; 7) trenajerlar; 8) ma'lumotlar va bilimlar omborlari; 9) elektron kutubxonalar; 10) ekspert o'qitish tizimlari asosidagi didaktik materiallar[3, 123-124].


Masofaviy o'qitishning *asosiy shakllari* ma'ruza, seminar, maslahat, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlaridan iborat.

Hozirgi kunda masofaviy o'qitish markazlari, masofaviy o'qitish fakultetlari va masofaviy o'qitish institutlari tashkil etila boshlanmoqda. Ana shunday vaqtda masofaviy o'qitishni tashkil etishda tashkiliy-metodik modellari va ularning sinflaridan hamda YUNESKO institutining 2000 yildagi analitik tadqiqot materiallarida ("Distance Education for the Information Society: Policies, Pedagogy and Professional Development") keltirilgan masofaviy o'qitish modellari (YAgonalik modeli, Ikkilanganlik modeli, Aralash model, Konsorsium, Franchayzing, Validatsiya, Uzoqlashtirilgan auditoriyalar, Loyihalar) dan jahon ta'lim tizimi foydalanib kelmoqda. [10]


Masofaviy o'qitish modellari

Masofaviy o'qitish modellari 1.1-rasmda keltirilgan.

Birlamchi model. Masofaviy o'qitishning bu shaklida kunduzgi bo'limda bevosita mashg'ulot o'tkazish shart emas, barcha o'qitish ma'lum masofada tashkil etiladi. Lekin ta'lim oluvchilar unga birkirilgan o'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'ladilar. Ta'lim oluvchilarga konsultativ yordam va yakuniy imtihon topshirish uchun mahalliy vakillar tashkil etiladi. Bunda o'quv jarayonining shakl va usullari ta'lim oluvchi va talaba tomonidan erkin tanlanadi, o'quv mashg'ulotlari jadvali va o'qitish vaqti chegaralanmaydi. Ko'pchilik ochiq universitetlarda ta'lim o'qitishning birlamchi modeli asosida qurilgan, masalan,



Buyuk Britaniya ochiq universitetida masofaviy o'qitishning ushbu modelidan foydalaniladi (<http://www.open.ac.uk>).




Masofaviy o'qitish modellari strukturasi

Иккиламчи модел. Ta'lim muassasasida o'qish ham kunduzgi ta'limda, va qisman masofaviy ta'limda olib boriladi. Har ikkalasida dars jadvali va o'qitish dasturi bir xil.

Ta'lim oluvchilar uchun nazorat bir xil kriteriya asosida baholanadi. Ta'lim muassasasida qo'llaniladigan masofaviy o'qitishning bu ikkilamchi modeli hamma vaqt ham foydali bo'lavermaydi, chunki o'qitishning asosiy qismi ta'lim oluvchilar tomonidan qoplanadi. Masalan, ikkilamchi modeldan Avstraliyaning universitetlarida foydalanib kelinmoqda (<http://www.une.edu.au>).

Аралашган модел. Bu model masofaviy o'qitishning turli shakllarini qamrab oladi, to'g'rirog'i turli masalalar integratsiyasi, masalan, ta'lim oluvchilar o'quv materialining ma'lum bir qismini masofaviy o'qitish bilan ketma-ket, boshqarilgan parallel ravishda kunduzgi bevosita o'qitish orqali oladilar. Ayrim mashg'ulotlar virtual seminarlar, namoyish (prezentatsiya), ma'ruza shaklida olib boriladi. Ta'lim muassasasi qanchalik axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlangan bo'lsa, o'qitish shakllari turli-tuman ko'rinishda tashkil etilishi mumkin. O'qitishning bu



integratsiya shakllaridan Massey va YAngi Zelandiya universitetlarida foydalanilmoqda (<http://massey.as.nz>).

Konsorsium. Ushbu model ikkita ta'lim muassasasining o'zaro aloqasida olib boriladi, ya'ni o'quv materiallarini ishlab chiqarish va ularni masofaviy o'qitishda ayrim funksiyalarni o'zaro bo'lib olishga asoslanadi. Birinchi muassasa masofaviy o'qitish uchun o'quv materiallarini ishlab chiqish bilan shug'ullansa, ikkinchi muassasa virtual o'quv guruhlarini o'qitish vositalari yoki masofaviy o'qitish dasturi ijrosini ta'minlaydi. O'zaro aloqada, ishlovchi bu muassasalar universitet, yohud ta'lim bilan shug'ullanuvchi markazlar, fakultetlar va hatto tadbirkorlik va davlat tashkilotlari ham bo'lishi mumkin.

Konsorsiumqat'iy markaziy boshqarish, xususiy mulk va mualliflik huquqi belgilangan tarzda ta'minlangan holda samarali natija beradi.

O'qitishning bu modelidan masalan, Kanadada ochiq O'quv agentligida foydalanib kelinmoqda (<http://www.ola.bs.ca>).

Franchayzing. Masofaviy o'qitishning franchayzing tamoyiliga asoslangan bu modelda muloqotdagi ta'lim muassasalari o'zaro o'zlari yaratgan masofaviy kurslarni almashadilar. Ta'lim xizmati bozorida yaxshi deb topilgan mahsulot egasi bo'lgan ta'lim muassasasi boshqa ta'lim muassasalariga yaratgan o'quv kurslarini beradi, yoxud masofaviy o'qitish orqali mashg'ulotlar olib boriladi. Ushbu modelning xarakterli jihati shundaki, ma'lum bir ta'lim muassasasida o'qish niyati bo'lgan talaba etuk oliy muassasaning konsorsiumi orqali o'sha hajmda, lekin yuqori sifatli bilim va o'qish nihoyasida diplom olish imkoniga ega bo'ladi.

Franchayzing modeli asosida o'qish tashkil etilgan ta'lim muassasalariga ochiq universitet - Biznes oliy ta'lim muassasasi va ular bilan muloqotda bo'lgan SHarqiy Evropa universitetlarini keltirish mumkin.

Validatsiya. Masofaviy o'qitishning bu modeli keng tarqalgan o'qitish shakllaridan hisoblanadi. Muloqotda bo'lgan barcha ta'lim muassasalari o'zaro teng darajada masofaviy o'qitish bo'yicha bitim tuzadilar. Ular birgalikda

masofaviy o'qitish dasturi va kursini yaratadilar, beriladigan diplom va sertifikatlar bir xil darajada tan olinadi.

Yiroqlashgan auditoriya. Ushbu modelda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari keng qo'llaniladi. Ma'lum bir ta'lim muassasasida tashkil etilgan o'quv kurslari, ma'ruza va seminarlar sinxron teleko'rsatuv, videokonferensiya, radioaloqa tarzida telekommunikatsiya kanallariorqali talabalar yig'ilgan yiroqdagi auditoriyalarga namoyishqilinadi. Bu vaziyatda o'qituvchi talabalar yig'ilgan yirik auditoriya bilan ishlaydi.

Masofaviy o'qitishning bu modelidan AqSHning Viskonsin universiteti, xuddi shuningdek, Xitoyning Markaziy radio va televidenie universitetida foydalanib kelinmoqda.

Loyihalar. Masofaviy o'qitishning ushbu modelidan davlat ahamiyatiga molik yirik masshtabli loyihalarni joriy qilishda foydalaniladi. Ushbu modelda asosiy rol o'quv materiallarini yaratgan malakali kadrlar, o'qituvchilar, olimlar yig'ilgan ilmiy-metodik markazga beriladi. Markazda yaratilgan masofaviy kurslar u yoki bu mamlakatning katta auditoriyasiga namoyishqilinadi. Unda o'qitish mavsumiy bo'lib, o'z maqsadiga erishilgandagina tugatiladi. Masofaviy o'qitishning bu kursiga misolqilib ekologiya, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan yangi agrotexnik usullar bilan tanishtirishga oid kurslarni keltirish mumkin. Masofaviy o'qitishning loyihalash modelidan Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tashkilotlarida keng foydalanilmoqda.

1.1-jadval. An'anaviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlari.

An'anaviy ta'lim	Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'lim
Nashr materiallari	Nashr materiallari
	Audio va video materiallar
	Kompyuter o'rgatuvchi dasturlar
	Elektron jurnallar

	Interfaol ma'lumotlar bazasi
	Kompyuter tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa o'quv materiallar



Hozirgi paytda masofaviy o'qitish kurslarining bir nechta texnologiyalari mavjud. Ularga kompleks *“keys-texnologiyalar”*, *korrespondentlik ta'limi*, *televizion va sun'iy yo'ldosh kanallari*, *mobil texnologiya*, *kompyuterli tarmoqtexnologiyalari* misol bo'la oladi.

Texnologiyalar asosida masofaviy o'qitish kurslarini tashkil etilishi tinglovchilarga kompleks o'quv-uslubiy materiallarni etkazib berish bilan birga, o'quv jarayonini boshqarishga, shuningdek tyutorlar hamda tinglovchilar orasida seminarlarni, konsultatsiyalarni o'tkazish, hamda tinglovchilar bilimni nazorat etishning monitoringini tashkil etish imkonini beradi. Masofaviy o'qitish kurslarini tashkil etishda o'quv jarayonini rejalashtirilishiga alohida e'tiborni qaratish lozim.

Masofaviy o'qitish tizimida foydalanilayotgan har qanday texnika yoki texnologiya, uqanchalik zamonaviy bo'lmasin, etarli darajada tayyorlangan o'quv materiallarisiz o'quv jarayonining effektivligiga ta'sir ko'rsata olmaydi. SHu sababli samarali o'quv jarayonini tashkil qilishda zamonaviy texnika va texnologiyani ishlatish bilan birqatorda mazmunli, har tomonlama qulay, grafika, multimedia va interaktivlik xususiyatlariga ega bo'lgan elektron darsliklarni ham ishlab chiqish zarur.

Avvalo darslik - davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyoti va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol/oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr ekanligini ta'kidlaymiz.

Elektron darslik esa, kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (hisqilinuvchi, seziladigan) hususiyatli, o'quvchini "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi [5].

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarining hammasida ham kompyuterli ta'lim etarlicha yo'lga qo'yilgan deyish qiyinroq. Elektron darslik yaratish borasida anchagina ishlar qilinayotgan bo'linsada, hali darsliklarga oddiy kutubxonaning kitoblariga ega bo'lishdek ochiq tizimlar mavjud emas.



Masofaviy o'qitish orqali elektron darsliklardan foydalanish, kompyuter vositasi yordamida talabalar berilgan topshiriqlarni bajarishga erishish, ularning bilim darajalarini aniqlash muhim hisoblanadi. Unda talaba ma'lum ta'lim portali orqali o'zining login va parolini kiritib, kurslar bo'yicha ta'lim oladi. YA'ni, ma'ruza matnlari o'qishi, topshiriqlar, test, savol-javob va boshqasini bajarishi evaziga, ma'lum ballarni to'playdi. Elektron darslik va video kurslar dars yoki darsdan tashqari mustaqil ta'lim olishda qo'llanilishi mumkin.

Odatda, elektron darsliklar va video kurslardan lokal tarmoqda kompyuterning o'zidayoq internetga ulanmasdan qo'llaniladi. Masofaviy o'qitishda esa, aksariyat hollarda, Internet tarmog'iga ulanish va ko'rsatilgan saytda ro'yxatdan o'tish zarur bo'ladi. Tahlillarga ko'ra AqSH, Evropa, Osiyo

davlatlarining ta'lim tizimida elektron darsliklardan foydalanib asosan talabalarni tarmoq texnologiyasi asosida o'qitib kelishmoqda.

Elektron darsliklar yaratish juda murakkab va qiyin ishdur. Ta'lim texnologiyasi markazida talaba, texnologiya mazmunida – talabalar tomonidan mustaqil ravishda ta'lim olishqobiliyatini rivojlantirish, o'quv faoliyat asosida hamkorlik yotadi. Elektron darslik ishlab chiqishda uchta asosiy komponent: o'quv materialni bayon etish, amaliy mashg'ulotlar bajarish va teskari aloqa (talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash jarayoni) e'tiborga olinishi kerak.

Har bir elektron darslik alohida ko'rinishda bo'lishi va ma'lum standart talabga javob berishi lozim. Ta'lim tizimida zamonaviy informatsion texnologiyalarning qo'llanilish yo'nalishlaridan biri yuqori darajadagi samarali va sifatli multimediali elektron darsliklarni ishlab chiqishdan iborat. Elektron darslikning qo'llanilish sohasi keng bo'lib, ayniqsa mustaqil ta'lim olish va masofaviy o'qitish jarayonida samarali natijalar beradi.

Oddiy o'quv qo'llanmalar hali ancha vaqtgacha talabalarni o'quvquroli bo'lib xizmat qiladi. Ekranga qaraganda bosmadan chiqqan matnni o'qish albatta oson va qulay. SHuning uchun ham elektron darslik yaratilayotganda, bu o'quv qo'llanma oddiysidan qanday afzalliklari bor degan savolga javob berishga tug'ri keladi. SHundan so'ngina agar qulayliklari bo'lsagina elektron darslik yaratishga kirishishimiz mumkin. Elektron darslik ko'pincha oddiy qo'llanmani to'ldiradi hamda juda ko'p afzalliklariga ega ekanligi xammamizga ma'lum.

Elektron darslikning yaratilishini oddiy kitobga o'xshash, ya'ni bet ketidan bet chiqadigan qilib yaratish ham mumkin. Elektron darslik yaratishda yuqori sifatdagi rasmlarni iloji boricha kamroq qo'llanish kerak, chunki ular ham darslikni kompyuterga yuklashni sekinlashtiradi.

Elektron darsliklar yaratishda matnning hajmi ham katta ahamiyatga ega va undagi shriftlarni hajmi va giperssılkalarning soni ham o'ziga yarasha ahamiyatlidir [14].

Yaxshi elektron darslik ma'ruza mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg'ulotlarida repititor, mustaqil ta'lim olishga vosita, kompyuterda laboratoriya ishlarini bajarish mobanida uslubiy yordamchi, talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy mashg'ulotlar uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchidir. Lekin, elektron darslikda yuqori sanalgan imkoniyatlarni mujassamlanishi uchun darslik yaratayotgan mualliflardan pedagogik mahorat, bilim va ularda o'rganilayotgan fan xususiyatini inobatga oluvchi murakkab uslubiy ishlanmalarning bo'lishi talaba etiladi.

Mavzu bo'yicha nazariy savollar:

1. Masofaviy o'qitish nima?
2. Masofaviy ta'lim nima?
3. An'anaviy ta'limdan masofaviy ta'limning farqlari nimada?
4. Masofaviy ta'limning qanday afzalliklari mavjud?
5. Masofaviy o'qitishning metodlarini tushuntiring
6. Masofaviy ta'lim modellarini tushuntiring?
7. Masofaviy o'qitish texnologiyalari xaqida nimalarni bilasiz?
8. Masofaviy o'qitish vositalarini bayon qiling
9. Elektron darslik bosqichlarini aytib bering?
10. Oddiy darslikdan elektron darslikning farqini "Venna diagrammasi" metodi yordamida aniqlang?

Moodle





Rasm 1. Moodle Namoyishli sayt

Moodle —kurslarni boshqarish tizimidir(electron ta’limni tashkil etuvchi) o’quv platformasi, yana bu tizim ta’limni boshqaruvchi tizim va virtual o’qituvchi muhit sifatida mashhurdir.Bu tizim nomi ingliz so’zlarining qisqartmasidan amalga oshirilgan Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment (modulli obektga – yanaltirilgan dinamik o’rgatuvchi muhit). (lisensiya asosida tarqatiluvchi GNU GPL) lisenziyasiga asosan web-ilova ko’rinishid abo’lib, web—o’qitish uchun saytlarni yaratish imkoniyatini beradi.

1.§.TIZIMDAN FOYDALANISH.

Masofaviy ta’li tizimlarini tah lil qilamiz:

Moodle

LMS Moodle — modulli ob’ektga-yonaltiruvchi dinamik o’rgatuvchi muhit-Avstraliyada yaratilgan.. Bu tizim ustida 10 yildan buyon Avstraliyada ishlovchilar guruhi ehnat qilib kelmoqda. Moodle tizimi ustida 10 yil bo’lganki, ishlab chiquvchilarning guruhi ishlab kelmoqda, Moodle fondi boshchiligida Moodle doimo rivojlanib boradi, Moodle tizimi doimiy rivojlanadi, ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilar o’rtasidagi o’zaro tajribasi yangi instrumentlar bilan to’ldirilishini ta’minlab beradi. Kurs juda ko’p ta’li elementlarini tashkil etilishini ta’minlaydi, shuning uchun moduldagi kurslar-bu faqat ma’ruza va topshiriqlarning to’plami emas,balki tizimli va modulli o’qitish uslubiyotiga asoslangan puhta o’ylangan tizimdir. Moodle — bu glossariylarni o’z ichiga oluvchi, bir birini to’ldiruvchi elementlardan iborat o’quv platformasigina emas,

balki biror fan buyicha standart ma'ruzalar, topshiriqlar, testlar va glossariy elemenlarini oluvchi to'liq bir tizimidir. Ta'lim platformasining elementlari o'zining tarkibi va vazifasi buyicha to'liq farq qilishadi. Moodleda – glossariy, viki, forumlar, praktikumlar qo'llaniladi, bu esa ta'lim jarayonini rang – barang qilishga qodirdir. Stoit otmetit xorosho razvituyu sistemu kommunikatsiy Moodlening yahshi kommunikatsiyalar tizimini ta'qidlamoq kerak. Forumda esa guruhlar buyicha javoblarni tahlil qilish, ixtiyoriy formatdagi fayllarni qushish mumkin. Shahsiy izoh va ma'lumotlarda o'qituvchi bilan shahsan muammoni hal qilmoq mumkin. Chatda muhokama real vaqtda amalga oshiriladi. Resurslar soni etarli bo'lmasada, Moodle ochiq kodlarda tarqaladi, bu esa uni har bir ta'lim loyihasi sifatida ko'satishga yordam beradi:

- Boshqa axborot tizimlari bilan integrallashgani;
- Yordamchi funksiya va hisobotlarning yangi srvislari bilan to'ldirish;;
- Tayyor va aynan yangi modullarni ishlab chiqish.

Sistema Moodle tizimi talabalarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ham qo'llaniladi.. Moodle har bir talabaning o'quv portfolio-sini saqlab bera oladi. Talabaning har bir javobi, o'qituvchisiga yuborgan ma'lumotlari va forumdagi ishtiroki axborotlarini saqlay oladi. Bu tizim talabalarning faolligini, tarmoqda o'qishini ta'minlab beradi. natijada o'qituvchi vaqtini samarali sarf etadi. O'qituvchi statistikani o'quvchilarga qarab yig'ib ololaydi, ma'ruzalarning o'qilishidan, ishlangan topshiriqlar va testlar buyicha talabalarning o'zlashtirishini nazorat qila oladi. Mavzuni talaba qanday tahlil qilgani buyicha kkeying mavzuni berish mumkinligini o'qituvchi bajarilgan topshiriqlar buyicha bilib oladi.

Moodle TMO'ning eng asosiy yutuqlaridan biri-uning dunyo buyicha taniqliligidadir. Bu tizim 60ga yaqin instalyasiyalariga ega, 100dan ortiq mamlakatlarda foydalaniladi va bu malkatlarning tiliga tarima qilingan. Moodle tizimida hozirda yangi bo'lib kirib kelgan Ommaviy Nashkil etilgan On-line kurslari Tizimini tashkil qilish sohasini rivojlantirish mumkin. O'zbekistonda ham bu tizim prof., f.m.f.d. A.Nishonovning rahbarligida o'zbek tiliga tarjima qillingan.

Samarqand, Toshkent medisina institutlarida bu tizim yordamida o'quv uslubiy majmualar fanlar buyicha kiritilib, ularni masofaviy o'qitish bir necha yillardan buyon ijobiy amalga oshirilmoqda. Bu sohada Toshkent Axborotlar texnologiyalari universiteti ham ancha yillik tajribaga ega. Bu universitetda an'anaviy ta'lim bilan birgalikda distension(masofaviy) ta'lim ham tug'ri yo'lga quyilgan. Barcha fanlardan o'quv uslubiy majmualar Moodlega joylashtirilgan, har biriga doir ma'ruza matni, glossariy, topshiriqlar, testlar quyilgan. Talabalar bu tizimga kirib, ro'yhatdan o'tishadi va ma'ruzalarni o'qib, bosqichma-bosqich o'zlashtirishadi. Topshiriqlarni bajarashadi, testlarni ishlashadi va ballar olishadi. Talabalarning bajargan ishlari buyicha ballarni jadvaldan nazorat qilish mumkin. Bu tizimdan Namanagan Davlat Universiteti yakuniy nazorat ishlarini olishda foydalanib kelmoqda, bu esa yakuniy nazoratning haqqoniyligi darajasini ko'tarishga o'z hissasini qo'shdi. Rossiyaning ko'pchilik o'quv yurtlarida ham bu tizimdan foydalanib kelinmoqda, maslan, L.I. Asadullina ishlarida ham "ana'naviy o'qitishni masofaviy o'qitish bilan kombinatsiya" qilingan shaklda qo'llaniladi. L.I. Asadullina o'zining "Aralash ta'limda o'qituvchining kompetentligi" mavzusidagi ishida bu haqida quyidagicha yozadi: «Ilmiy Teksiruv Tomsk Politehnika Universitetida LMS Moodle tizimida o'qituvchilar o'z fanlariga oid mualliflik elektron kurslarini ishlab chiqishadi va talabalar ularni o'rganib, o'qigan materiallari yuzasidan o'zlarining bilim saviyalarini aniqlashlari mumkin.

2.§. MOODELNING O'RTNATILISHI.

Bu erda Moodleni o'rnatish jarayonini keltiramiz. Bu erda bayon etilganlarni o'qib siz Moodleni bir necha daqiqalqrd uni o'rnatishingiz mumkin. Bu erda ko'rsatilgan jarayonlar sizga qiyin ko'rinsada, ularni bajarib, siz Moodleni o'rnatishingiz mukin.

Agar bu erda yozilgan amallarni bajarib ham sizda savollar tug'lsa, unda siz moodle.org ga Using Moodle (ingl.) kursida yoki Russian Moodle (rus.)ga murojat qilishingiz mumkin. Ikkinchi imkoniyat-Drugaya vozmojnost - Moodle(ing)

hostingi xizmatlarini beruvchi Moodlening official hamrolari(Moodle Partners)ga murojat qilib, predostavlyayumix usluga Moodle (angl.).

Agar Siz Moodleni kompyuteringizga o'rnatmoqchi bo'lsangiz, biz bergan ma'lumolar sizni ko'rqitsa, quyidagi maqolalarni o'rganishingizni taklif etamiz:: Ustanovka Apache, MySQL i PHP –Apache, MySQL va PHPni ustanova qilish-yuklab olish yoki Moodlening toliq Paketlaridan birini o'rnatish. Ular sizga toliq va batafsil yuriqnomalar bilan ta'minlashadi.

3. §. TIZIMGA TALABLAR

Avvalda Moodle Apache, MySQL va PHP (Linux + Apache + MySQL + PHP = LAMP) o'rnatish orqali amalga oshiriladi edi, lekin doimo Windows XP/2000/2003 (WAMP), Solaris 10 (Sparc and x64), Mac OS X va Netware 6 muhitida tekshirilgan. SUBD PostgreSQL, Oracle va Microsoft SQL Serverlar ham qo'llab quvatlagan.

Hosting haqida izoh:Moodle tizimga javob beruvchi sitemalar juda ko'p emas. Bunda suzga yordam qiluvchi xizmatlarni beruvchi tashkilot bilan shartnoma qilishdan oldin bog'lanishingizga to'g'ri keladi.HYH cheklovlariga (memory_limit) va MySQLga siz e'tiboe berishingiz kerak. Agarda web-hosting pastda aytilgan imkoniyatlarga ega bo'lmasasababainin bilib, uning xizmatini rad etmoq zarur.

Moodle ishlashi uchun tizimga quyidagi talablarni qo'yadi:

Jihozlar

- Diskda joy: diskda kamida 160 MBayt bo'sh bo'lishi kerak. O'quv materiallarni saqlash uchun ko'proq bo'sh joy kerak bo'ladi.
- Opertiv hotira: kichik hajmi - 256 Mbayt, taklif etilayotganrekomenduemy - 1 Gbayt. Sizga kerakli hajm uchn siz taqribiy hisoblash qoidasidan foydalanishingiz mumkin: har bir 1 GB hotirasiga bir vaqda tizimda ishlayotgan 50 foydalanuvchilar. Shuni esingizdan chiqarmangi, bu raqam aniq bo'lmasligi mumkin,bu siz ishlayotgan jihozlar va siz ishlatiyotgan dasturiy ta'minotga bog'liq.

- Bu PHH va MySQL hosting xizmatlarining cheklovlari bilan aniqlanadi..

- Moodle ni qo'llovchi foydalanuvchilar soni serverning samaradorligi bilan cheklangan bo'lishi mumkin. Server samarasorligi haqida ko'ring.

4. §. DASTURIY TA'MINOT.

- Veb-server. Ko'pchilik Apache serverini ishlaishni o'ziga ma'qul deb ko'radi, lekin Moodle boshqa serverlar bilan ham yaxshi ishlaydi, misol uchun, PHPni qo'llab quvatlovchi Windows tizimida IIS server bilan ham yaxshi ishlaydi. PHP server versiyasiga talabalar qo'ymasada, imkoniyati boricha veb-serverlarning eng yangisi, eng stabil ishlaydiganini ishlatish kerak.

- PHP scenariylarining tillariga e'tibor berish kerak, ayniqsa, Moodle ni PHP-Accelerator bilan o'rnatilishida mahsus tomonlariga e'tibor berish shart). Hozirgi unda ikkita asosiy versiyalar mavjud-PHPning shohlari: PHP4 va PHP5. HYHga bo'ladigan talablar bilan tanishib chiqish kerak.

- 4.3.0 versiyalar va undan yuqori Moodle 1.9 uchun

- 5.2.8 versiya va undan yuqori Moodle 2.0 uchun

- Berilganlar omborining ishlab turuvchi markazi: Moodle bilan birgalikda ishlashga qulay va berilganlaromborini to'liq qo'llab quvatlovchi quyidagi berilganlar omborining serverlaridir:

- MySQL (Diqqat! "strict mode" opsiyasi MySQLda uchirib quyilishi shart

- 4.1.16 versiyasi va undan yuqorisi Moodle 1.9 uchun

- 5.0.25 versiyasi va undan yuqorisi Moodle 2.0 uchun

- PostgreSQL

- 8.0 versiyasi va undan yuqorisi Moodle 1.9 uchun

- 8.3 versiyasi va undan yuqorasi Moodle 2.0 uchun

- Microsoft SQL Server

- 9.0 versiyasi va undan yuqorisi Moodle 1.9 uchun

- 2005 versiyasi va undan yuqorisi uchun Moodle 2.0 uchun

- Oracle
- 9.0 versiyasi va undan yuqorisi uchun Moodle 1.9 uchun
- 10.2 versiya va undan yuqorisi uchun Moodle 2.0 uchun

MySQL Moodle tizimiga ma'lumotlar omborining serveri sifatida ishlatilishi mumkin, chunki MYSQL juda mashhur va ishlatishga qulay. Boshqasini ha ishlatish mumkinmi savoliga javob-ha. Bu- PostgreSQL.

5. §.YAKUNLASH VA JOYLASHUV

Moodleni hosil qilish ikki uslubda amalga oshiriladi – arhiv faylini yuklash yoki CVS orqali.

- <http://download.moodle.org/> satrida arhivlarning ikki turi mavjud: faqat Moodle fayllaridan iborat arhiv va to'liq o'rnatuvchi paket, u o'z navbatida, Moodle bilan ishlash uchun to'liq dasturlardan iborat.
- CVSni ishlatish buyicha yuriqnoma administratorlar uchun "CVS Administrator"¹⁴ sahifasida joylashgan. Undan tashqari Moodlening Sourceforgeda to'liq repozitariysidan foydalanish mumkin.

Yuklashdan keyin, arhivni quyidagi buyruqlarni qo'llab oching:

`tar -zxvf [filename]`

yoki OSga qarab

`unzip [filename]`

Agar Siz CVSdan foydalansangiz,, Checkout CVC buyrug'ini qo'llang. Unda siz "moodle" deb nomlanuvchim pakani olasiz, u o'z navbatida barcha kerakli fayl va papkalarni o'z ichiga olgan.

Hosil qilingan moodle papkani o'zingizning serveringizga nusxa qilishingiz mumkin, agar saytingiz <http://yourwebserver.com/moodle> bolsa, agar saytingiz <http://yourwebserver.com.bo'lsa>, papkaning ichidagi ma'lumotni veb-sreverga kuchirish mumkin.

Agar siz Moodleni kompyutringizga kuchirsangiz, keyin uni veb-saytga yuklasangiz, butun arhivni bitta fayl sifatida yuklash ancha qulay bo'ladi., keyin

¹⁴ www.google.com, www.google.ru, Vikipediya materiallari.

esa uni serverda uni arhivini ochish mumkin.Veb hostin interveysi , misol uchun,Cpanel kabi, bizga file menedgeri sifatida faylni ochishi mumkin ("File Manager").

6. §. MOODLE KATALOGINI TARKIBI

Biz Moodle katalogining tarkibin keltiramiz, bu unda ishlashda bizga yordam beradi:

config.php – asosiy sozlovlarni o'z ichiga olgan.Bu fayl yuklash jarayonida paydo o'ladi.

install.php - config.php ni hosil qilish uchun yuklash zarur bo'lgan fayl

version.php - sizda yuklangan Moodlening versiyasi haqida ahborotni o'z ichiga olgan.

index.php – ebu saytingizning bosh sahifasi.

admin/ - saytingizni adminlash skriptlari.

auth/ - sayt foydalanuvchilarini autentifikatsiyalash uchun yuklanuvchi modullar

blocks/ - ko'pkina sahifalarda quyilshi mumkin bo'lgan, kichik bloklarning ulanuvchi modullari

calendar/ - taqvimlar bilan boshqarish va kiritish uchun scriptlar

course/ - o'quv kurslarni chqarish va ular bilan boshqarish uchun scriptlardoc/ - pomosh po Moodle (naprimer, eta stranitsa)

files/ - yuklangan fayllar bilan boshqarish va ko'rib chiqish scriptlari

lang/ - turli tillardagi matnlar, bitta direktoriya-bitta til(Moodleni lokalisatsiya uchun)

lib/ - Moodle yadrosining asosiy kutubhonalari.

login/ - o'quv yozuvlarini yaratish va kirishni ishlash uchun scriptlar

mod/ - kurslarni yaratish uchun ishlatiladigan barcha asosiy modullar

pix/ - sayt uchun rasmlar

theme/ - saytni shakllantirish uchun mavzular

user/ - foydalanuvchilarni boshqarish uchun scriptlar

7. §.SIZNING SISTEMANGIZNI SOZLASH

Moodleni samarali yuklash uchun veb-serverning sozlovlarinin korrektligini tekshirish zarur, keyin Moodle uchun berilganlarning bo'sh bazasini yarsaqlanishi mumkin, diskda ohirda katalog yaratish mumkin. Bu sizning diskingizda kurslarning materiallarini va fayllarni saqlash mumkin

8. §. VEB-SERVER SOZLOVLARINI TEKSHIRISH

Birinchida, index.php fayl veb-serveringizda bosh sahifadek o'rnatilganinin aniqlang, bunday sahifalar sifatida index.html, default.htmlarni ishlatamiz). Apacheda, DirectoryIndex orqali httpd.conf. papakada sozlanadi. Quyidagi satrga o'hshash satrni faylingizdan toping:

DirectoryIndex index.php index.html index.htm

index.php ni unda ro'yhatga olingan fayllar ro'yhatiga kiriting. Ishning tez amalga oshirilishi uchun ro'yhatning boshiga kiriting.

Ikkinchidan, siz Apache 2ni qo'llaganingizda, sizga AcceptPathInfo o'zgaruvchini o'rnatish zarur bo'ladi, <http://server/file.php/arg1/arg2>. kabi scriptlarga argument berishga qodirdir. Bu sizning resusrlaringiz o'rtasida nisbiy ssilkalarni hal etish va sizning saytingizni foydalanuvchilar mashinalariga yuklashni tezlashtirish uchun zarur. Bu sahifani httpd.conf. faylingizga qushing AcceptPathInfo on.

9. §. PHP SOZLOVLARINI TEKSHIRISH

Moodle o'zining ishi uchun PHPning ko'pkina sozlovlaiga muhtoj. Ko'pchilik serverlarda bu sozlovlar "po umolchaniyu" amalga oshirildi. Lekin PHPning qandaydir serverlarida va qandaydir versiyalarida qandaydir sozlovlar farq etishi mumkin. Ular konfiguratsiya fayllarida amalga oshiriladi (asosan php.ini fayllar hisoblanadi):

magic_quotes_gpc = 1 (kerakl, lekin zaruriy emas)

magic_quotes_runtime = 0 (zarur)

file_uploads = 1

session.auto_start = 0

```
session.bug_compat_warn = 0
```

Siz zarur bo'lmagan boshqa sozlovlarni ham bajarishingiz mumkin, agarda faylni tahrilayotgan bo'lsangiz, bu amalga oshadi. Misol uchun 2 M< etib cheklab quyilgan yuklanuvchi fayllarning maksimal hajmini kattalashtirishni hohlab qolishingiz mumkin. Bu qiymani 16MB gacha kattalashtirish krak bo'lsa, quyidagi sozlovlarni amalga oshiring:

```
post_max_size = 16M
```

```
upload_max_filesize = 16M
```

htaccess faylini beb-serverning va PHPning sozlovi uchun qo'llash

Agar siz serverda httpd.conf yoki php.fayllariga dostup-ularni qo'llashga imkoniyatga ega bo'lmasangiz, siz Moodleni serverga boshqa dasturiy taminot bilan o'rnatasiz, bu boshqa sozlovlarni talab etadi, bunda po "umolchaniyu" sozlovlaridan voz kechish mumkin bo'ladi.

Moodlening barcha fayllari joylashgan, .htaccess faylni direktoriyada yaratishnga tug'rikeladi, unda pastda ko'rsatilgan satrlarni yozish mumkin. Bu Apache boshqaruvida serverda ishlaydi va unda Qayta aniqlashlar asosiy konfiguratsiyasida hal etiladi.

```
DirectoryIndex index.php index.html index.htm
```

```
<IfDefine APACHE2>
```

```
AcceptPathInfo on
```

```
</IfDefine>
```

```
php_flag magic_quotes_gpc 1
```

```
php_flag magic_quotes_runtime 0
```

```
php_flag file_uploads 1
```

```
php_flag session.auto_start 0
```

```
php_flag session.bug_compat_warn 0
```

Quyida keltirilgan kabi siz yuklanuvchi fayllarni 2 megabaytlar bilan cheklash uchun yozishingiz mumkin:

```
LimitRequestBody 0
```

php_value upload_max_filesize 2M

php_value post_max_size 2M

Moodle/lib/ papakasidan taqribiy sozlovlari bilan bittaanomli faylni nussha qilish va bizga kerakli holga keltirish osonroq. Buni turlicha qilish mumkin. Misol uchun, Unix qobig'ida bunday buyruqni kiritish mumkin:

```
cp lib/htaccess .htaccess
```

htaccess faylni qo'llash sizning MO'Tning samaradorligiga ta'sir qiladi va sahifalarning yuklanishini sekinlashtirishi mumkin..

10. §. BERILGANLAR OMBORINI YARATISH.

Sizga berilganlar omborining bo'sh bazasini BOBTda mahsus buning uchun yaratilgan (misol uchun "moodleuser") berilganlar bazasiga kirish ruhsati bo'lgan foydalanuvchi tomonidan ("moodle" turdagi) berilganlar bazasini yaratish mumkin. Siz hohlasangiz, "root" foydalanuvchini tanlashingiz mumkin, serverni testlashtirish uchun, lekin hafsizlik tomonlarini o'ylab buni amalga oshirmaslik kerak.

Moodle i 1.5.x versiyasi "STRICT_TRANS_TABLES" iz MySQL5.x. opsiya bilan ishlaymaydi. Agar siz MySQL 5.x, qo'llasangiz, MySQL (обычно "my.ini" v Windows i "my.cnf" v Unix/Linux) konfiguratsiyasini tahrirlang va bu opsiyani izohlang yki umuman olib tashlang. O'zgarishlar ishlashi uchun MySQLni boshdan ishga tushirish mumkin.

Agar siz webhostni qo'llasangiz, unda siz veb-interfeys orqali berilganlar omboringiz ni yaratish va uni boshqarish uchun boshqaruv paneliga egasiz..

Cpanel – buning uchun eng mashhur vositalaridan biri. Cpanelda berilganlar omborini yaratish uchun quyidagi amallarni bajarish kerak,

1. "MySQL Databases" sivol ustida chertib quying.
2. "moodle" ni BO nmli maydonda chop eting va "Add Database"ni bosing.
3. Foydalanuvchi ismi va parolini mahsus maydonlarga kiriting (ularni hech qaerda qo'llamang) va "Add User"ni bosing.

4. Endi "Add User to Database" tugmani "ALL" huquqini va ro'yhatga olish uchun yangi berilganlar omborida qo'llang.

5. "username" va "database names" lar qushimchaga ega – bu sizning Cpanelda "account name"ingizdir. Siz Moodle instalyatoriga axborotni kiritsangiz, to'liq ismlarni kiriting.

Unix buyruqli satrga ruhasatingiz bo'lsa, siz buni o'zini buyruqlarnikiritib amalga oshirishungiz mumkin.

MySQL uchun bu erda shunday misollar keltirilgan(agar sizda Moodle 1.6va keying versiyalari bo'lsa xhop eting va sizda Moodle 1.5.x versiya no'lsa, yoki undan o'ldingi versiyalari bo'lsa chop etmang):

```
# mysql -u root -p
> CREATE DATABASE moodle DEFAULT CHARACTER SET utf8
COLLATE utf8_unicode_ci;
> GRANT SELECT, INSERT, UPDATE, DELETE, CREATE, DROP,
INDEX, ALTER ON moodle.*
TO moodleuser@localhost IDENTIFIED BY 'yourpassword';
> quit
# mysqladmin -p reload
```

MySQL 4.0.2 yoki undan oldingi versiyalarini ishlatsangi, siz CREATE TEMPORARY TABLES jadvalini GRANT orqali amalga oshirishingiz kerak:

```
> GRANT SELECT, INSERT, UPDATE, DELETE, CREATE, CREATE
TEMPORARY TABLES, DROP, INDEX, ALTER ON moodle.*
TO moodleuser@localhost IDENTIFIED BY 'yourpassword';
PostgreSQL uchun buyruqlar:
# su - postgres
> psql -c "create user moodleuser createdb;" template1
> psql -c "create database moodle with encoding 'unicode';" -U moodleuser
template1
> psql -c "alter user moodleuser ncreatedb;" template1
```

```
> psql -c "alter user moodleuser with encrypted password 'yourpassword';"  
template1
```

```
> su - root
```

```
# /etc/init.d/postgresql reload
```

Agarda (>psql -c "create database moodle...") berilganlar omborini qo'llash hatoikga olib elsa, quyidagi qiymatni kiritish kerak:

```
psql -c "create database moodle with template=template1 encoding =  
'unicode' owner = moodleuser location = '/var/mydata';"
```

11.§.BERILGANLARNI SAQLASH UCHUN PAPAKANI YARATISH

Yuklanagan fayllarni saqlash uchun Moodle qattiq diskda joy talab qiladi. Misol uchun, o'quv kurslarning hujjatlari yoki o'quvchilarning rasmlari.

V protsesse ustanovki Moodleni o'rnatish jarayonida bu direktoriyani yaratishga harakat qilish kerak. Agar bu narsani o'rnatish qiyinchilik keltirib chiqarsa, qo'lda yaratishga tug'ri keladi.

Hafsizlik uchun bu papakaga internetdan tug'ridan-tug'ri yo'lni berkitish kerak. Veb direktoriyadan tashqarida uni joylashtirib, bunga erishish mumkin. Agarda Siz unga o'sha joyda faqat erishgan bo'lsangiz, unda uning himoyasi uchun deny from all satrni o'z ichiga oluvchi htaccess,faylini tashkil eting.

Moodle bu papkaga yuklovchi fayllarni saqlashi uchun veb server(misol uchun, Appache) yozuviga qarang va bu papkada fayllarni o'qish va bajarish ruhsati borligini tekshiring. Unix tizimlarida bu shartni direktoriya egasi o'rnatadi. Bu "nobody" yoki "apache" kurinishida. Bundan so'ng boshqa foydalanuvchilarga ruhsat beradi. Buning uchun quyidagi buyruqni amalga oshirish kerak:

```
chown -R nobody:nobody moodledata
```

